

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

T A R I X F A K U L T E T I

«Himoyaga ruxsat etilsin»

Fakultet dekani _____

t.f.n., dotsent V.T.Ishquvatov

2014 yil « ____ » _____

5140600 «Tarix» ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Toxirov Mansur Baratovichning
“Buxoro xonligida tovar-pul va savdo munosabatlari”
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Tarix» kafedrasi dotsenti, tarix fanlari
nomzodi S.To‘rayev

«Himoyaga tavsiya etilsin»

«Tarix» kafedrasi mudiri

_____ t.f.n., dots Z.A.Ilhomov

2014 y. « ____ » _____

TOSHKENT – 2014

Mundarija.

Kirish.....	3
--------------------	----------

1-bob. Xonlikdagi iqtisodiy ahvol va tovar-pul munosabatlari.

1.1 Xonlikda yo'ritilgan iqtisodiy siyosiy va uning mohiyati.....	7
1.2 Tovar-pul munosabatlari boyicha xonlikdagi mavjud tizim.....	19
1.3 Xonlikdagi tovar-pul munosabatlarining sulola hukumronligi davridagi o'ziga xos xususiyatlari.....	30

2-bob. Buxoro xonligida savdo munosabatlarining yo'lga qoyilishi.

2.1 Ichki savdoda xonlar tomonidan yo'ritilgan siyosat.....	41
2.2 Xonlikning tashqi savdo aloqalari.....	49
2.3 Mavzu materiallari boyicha ta'lim tizimi uchun dars ishlanmasi.....	57

Xulosa.....	67
--------------------	-----------

Foydalanilgan adobiyotlar va manbalar.....	69
---	-----------

Ilovalar.

Glossary.

Kirish.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng tariximizni o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Bu esa mustaqillikni mustahkamlashda, o'zligimizni anglashda va milliy g'ururni yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 1998 yili 26 iyunda respublikaning bir guruh tarixchi olimlari va jurnalistlari bilan o'tkazgan suhbatida shunday deydi, „davlatchilik tariximiz tub burilish pallasiga kirgan bir paytda o'zimizning zamon va makondagi o'rnimizni aniq belgilab olishimiz, nasl-nasabimiz, kimligimizni bilishimiz kerakmi-yo'qmi?“¹ degan savolni ko'dalang quyadi. Bu esa tarixchilarga O'zbek davlatchilik tarixining chuqur o'rganishni dolzarb masala sifatida tarixchilar zimmasiga yuklaydi.

Milliy mafkurani shakllantirishda va u yordamida xalqning milliy g'ururini oshirishda, uni vatan mustaqilligi g'oyasi atrofida birlashtirishda tarix fanining ahamiyati kattadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov bu haqida: “O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q”², - deb ta'kidlagan edi.

Shunday ekan O'zbek davlatchiligi tarixida 220 yildan oshiqroq davrni egallagan Buxoro xonligi davlati muhim o'rin egallagan bosqichlardan biridir. Buxoro xonligi davrida vatanimiz tarixining eng og'ir damlari boshlanayotgan davr edi. Lekin bu sulolalar tarixda markazlashgan davlat tuzish uchun kurash olib borganligi bizga ma'lum, ular shayboniylar va ashtarxoniylar sulolalarining ba'zi vakllari Buxoro xonligi davlatida birmuncha tinchlik, barqarorlik o'rnatilib, xalqning ahvolini yaxshilash, mamlakat iqtisodiyotini tiklash uchun sharoit yaratib berilganligidir. Bu davr tarixshunosligini mustaqillik yillarida ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida O'zbekiston tarixi fanining tarkibiy qismi sifatida “Buxoro xonligida tovar-pul va savdo munosabatlari” boyicha umumiy

¹ Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т.: Шарқ. 1998 5-бет

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008 4-bet

o'rta ta'lim maktablarida va akademik litseylarda ta'lim berish masalasini tadqiq qilish tarix fanining dolzarb masalalaridan hisobdanadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. B.M.I. uchun tanlangan mavzu tarixshunosligimizda kam o'rganilgan mavzulardan biridir. Tarixshunosligimizda Buxoro xonligi tarixi haqida alohida fundamental tadqiqot shu kunga qadar juda kam o'rganilgan mavzulardan hisoblanadi. Demak sovet davrida Buxoro xonligiga oid bir necha adabiyotlar nashr etilgan bo'lib, ular E.E.Bertel's, Y.G'.G'ulomov, E.A. Davidovich, Ziyayev N. Ernazarov T., Mukminova R.G., Тўхтиев И. va I.Nizomiddinovlarning³ ishlari bu sovet mafkurasi asosida yondoshilgan. Buxoro xonligining tarixi ko'proq O'zbekiston tarixiga oid darsliklarda bayon etilgan. R. Shamsutdinov, A. Ziyo va B. Ahmedovlar muallifliklaridagi qator kitoblarda bu davlat va bu sulola vakillari haqida bir qator ma'lumotlar keltirilib nashr etilgan⁴.

Tadqiqodning davriy chegarasi. Bitiruv malakaviy ish XVI asr boshlaridan XVIII asrning II yarmigacha bo'lgan davr voqealarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqot ishining maqsad va vazifalari: BMIning asosiy maqsadi milliy mafkura va milliy g'oya asosida tariximizning kam o'rganilgan sahifalaridan biri bo'lmish Buxoro xonligi davlati tarixini va bu davlatini idora qilgan shayboniylar va ashtarxoniylar, O'rta Osiyoning shu davrdagi siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotini va shuning bilan birga tashqi diplomatik savdo tijorat ishlari bo'yicha tarixiy manbalar asosida chuqur ilmiy tahlil etishdir.

B.M.I.ning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

—Xonlikda yuritilgan iqtisodiy siyosat va uning mohiyatini tahlil qilish;

—Xonlikdagi tovar—pul munosabatlari bo'yicha xonlikdagi mavjud tizimni o'rganish;

³ Из архива шейхов Джуйбари. Под редакцией Е.Э.Бертелса М. 1938. Я.Ф.Гуломов Р.Н.Набиев. М.Ф.Вохобов. Ўзбекистоннинг ССР тарихи. Т.; 1958. Э.А.Давидович. История монетного дела средней Азии XVII-XVIII vv. ИЗДАТЕЛЬСТВО АКАДЕМИИ НАУК ТАДЖИКСКОЙ ССР Душанби, 1964. Зияев Х. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI—XIX асрлар). Тошкент, 1962. И.Низомиддинов. XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё—Ҳиндистон муносабатлари. Т., Фан. 1966. Тўхтиев И. Тангалар тилга кирганда. Т.; «Фан». 1989. Эрнazarov Т. Тангалар ўтмиш даракчилари. Т.; «Фан», 1977. Мукминова Р.Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. (по материалам «Вакфнаме») – Т.: Фан, 1966.

⁴ R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev. Vatan tarixi II tom. Т.: Sharq nashriyoti.2010 у. А.Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.: Шарқ нашриёти. 2000 й. Борибой Ахмедов. Тарихдан собоклар. Т.: Ўқитувчи нашриёти 1994 й

—Xonlikdagi tovar—pul munosabatlarining sulola hukumronligi davridagi o'ziga xos xususiyatlari ochib berish;

—Ichki savdoda xonlar tomonidan yuritilgan siyosatning mohiyatini yoritish;

—Xonlikning tashqi savdo aloqalaridagi holatni sarhisob qilish;

—Mavzu materiallari boyicha ta'lim tizimi uchun dars ishlanmasini yaratish;

Tadqiqotning ob'ekti: Buxoro xonligida tovar-pul va savdo munosabatlarning rivojlanish tarixi.

Tadqiqotning predmeti: Buxoro xonligida iqtisodiy hayot, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, savdo-sotiq, tovar-pul munosabatlari, soliq siyosati, Buxoro xonligining boshqa mamlakatlar bilan aloqalarini izchil o'rganish va tahlil qilish tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning ishining nazariy va uslubiy asoslari: Tadqiqotning nazariy uslublarini ilmiylik, xolislik, tarixiylik, hamda qiyosiy tahlillarga asoslangan holda xulosa va umumlashmalar berish tamoyillari tashkil etadi. Bitiruv malakaviy ishini yoritishda manbashunoslik, tarixchi olimlarning tarixiy-ilmiy xulosalari va O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" va boshqa asarlarida tarixni o'rganish bo'yicha belgilab berilgan yo'nalish va tamoyillarga suyanildi. Shu bilan birga tarixni tadqiq va talqin qilishga oid qimmatli goyalari, ta'lim sohasini isloh etish haqidagi nutqlari ham ilgari surgan fakrlari asos qilib olindi.

Shuningdek, tadqiqot ishini bajarishda mavzuga oid materiallarni taqqoslash, tahlil qilish, ta'lim jarayonida qo'llash orqali umumlashtirilgan xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotning ishining ilmiy va amaliy ahamiyati: Mavzu bo'yicha o'quv adabiyotlaridagi materiallar, manbalarni taqqoslab tahlil qilishni, mutaxasislarga ushbu mavzu materiallari boyicha aniq yo'nalishlar tasavvurlar berish ishning amaliy ahamiyatini tashkil etadi.

Shuningdek tadqiqod natijalarida o'zbek davlatchiligi tarixini ilmiy jihatdan o'rganish va muhim vazifani hal qilish bilan birga, Buxoro xonligida tovar-pul va savdo munosabatlari boyicha umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylarida o'quvchilarga ta'lim berishda tavsiya etilayotgan texnologiyalar tadqiqot ishini amaliy ahamiyatini tashkil qilib, o'quvchilarga samarali ta'lim berishga xizmat qiladi.

Mavzuning tarkibiy qismini kirish, ikkita bob, ularning har biri uch paragrafdan iborat, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar, ilovalar va glossarydan iborat.

I-Bob. XONLIKDAGI IQTISODIY AHVOL VA TOVAR-PUL MUNOSABATLARI.

1.Xonlikda yo'ritilgan iqtisodiy siyosat va uning mohiyati.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, XVI – asrga kelib Mavaraunnahrda va Xurosandada yuz bergan iqtisodiy inqiroz asta sekinlik bilan keng quloch yoyilib borgan. Shu urinda Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolalari davrida ham tarix muarrixlari adabiyotlarda ham yaqqol urg'u berilib o'tilgan. So'lola hukmdorlari har-qancha o'rinmasinlar, deyarli yaxshi natijaga erisha olmaganlar. Old osiyo va Yaqin sharqni, Xitoyga – Xitoyni esa Old osiyo va Yaqin sharqqa, Hindistonni esa Rusga va undan sharqiy yevropaga bog'lab turuvchi bu “buyuk ipak yo'li”da Buxoro muhim stratigik ahamiyat kasb etgan. Bunning bosh mohiyati “Buyuk ipak yo'lining” ahamiyati yildan yilga pasayib borishi bilan izohlash mumkin. Bu quruqlik yo'lining inqiroz mohiyati esa <<Buyuk geografik kashfiyot>> edi. Buning natijasida savdo endilikda okeanlarga ko'chganligi bilan izohlanadi.

Xonlik hukmdorlari bir qancha chuqur iqtisodiy islohatlar amalga oshirganlar. Tarixdan ma'lumki Shayboniylar tomonidan o'lkada ko'plab ijtimoiy – iqtisodiy islohatlar jumladan 1507–1508, 1529-1530, 1583 1598 yillarda pul islohati amalga oshirilgan. Bu davrda Shayboniylar nomi bilan yangi kumush va mis tangalari zarb etildi. Oltin tangalar esa faqatgina Abdullaxon II davrida zarb etilgan. 1507 yili Muhammad Shayboniyxon Hirotni egallagach shaharning jome masjidida pul islohati to'g'risida farmon beradi. Bu davrda Hirotda pul muomilasida chuqur inqirozga uchragan edi. Bu islohat jamiyatning boy savdagarlari qatlamini Shayboniyxon tomoniga o'g'dirishi kerak edi. U kumush tanga muomilasi, ishonchli savdo va o'zgarmaydigan zarbxona va'da qildi. Kumush muomilasining asosida Muhammad Shayboniyxon yorlig'i bilan chiqarilgan yangi bezakli tanga yotadi.

So'ngi Temuriylar tangasi misqol bilan tenglashib, uning vazni 4,8 grammni tashkil qiladi. Shunday qilib Shayboniyxon 1507 yilda pul islohati o'tkazildi. Bunga ko'ra, mamlakatning hamma katta shaharlarida vazni bir xil 5,2 gramm bo'lgan yangi kumush tangalar hamda mis chaqa pullar zarb qilinib, muomilaga chiqarildi. Shayboniyxon yangi tangasining og'irligi misqolning 1/12 qismiga teng bo'lgan. Shayboniyxon islohati Temuriylarning bir misqolli tangalarini muomilada bo'lishini taqiqlamagan, lekin ularning qiymatini pasaytirgan.

Bu islohat iqtisodiyotni tartibga solish va savdo sotiqni jonlantirish maqsadida o'tkazilgan edi. Ayni paytda, bu islohat dehqonlarning soliq to'lash imkoniyatini oshirishga, davlat va xon mulkini ko'paytirishga imkon bergan⁵.

Shayboniyxon tangalarida quydagi yozuvlarni ko'rishimiz mumkin. Zarb Samarqand o'lchami 23-27 mm; og'irligi esa 4,8 gramm. Tanganing chetlarida “ Muhammad ...bani xan ” – “ Sulton ” deb yozilgan. Tadqiqotchi G.A.Xudayokov⁶ shu yo'qorida o'chib ketgan yozuvlar o'rnini keyingi tangalar bilan solishtirib shunday qayta tiklagan. Oliy nasab Sulton, ollohning ishlari davomchisi, din himoyachisi – Muhammad Shayboniyxon. Olloh uning umri va hukumronligini ziyoda qilsin! deb yozilgandi.

Tanganing reversida – Ollohdan boshqa iloh yo'q! Muhammad uning elchisi! Aylanasiga 4 ta halifaning ismlari bitilgan. Umar al-Farrux, Usmon al-Affon, Ali al-Murtadi, Abu Bakr deb yozilganligini aniqlagan edi.**(1-rasm)**

Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgan bu va boshqa tadbirlar, o'z mohiyatiga ko'ra, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga xizmat qilishi zarur edi. Shayboniylar hokimiyatni mustahkamlab olgach, mamlakatning ichki hayotini tartibga solishga harakat qiladilar. Soliqlar va zulm, zo'rlikning og'irligidan xo'jaliklar yer – suvlarini tashlab ketadilar. Shayboniylar

⁵ Холиков З. Жаҳонгирова Б. Сўнги ўрта асрлар тангалари // Мозийдан садо, -№ 3. [39] - Б. 26-27. 2008.

⁶ Худяков Г.А. Новые данные о монетном чекане Караханидов и Шейбанидов // Нумизматика Центральной Азии. VII. Сборник статей. Под редакцией академика АН Республики Узбекистан Э.В.Ртвеладзе. – Т., 2004. – С. 70-79.

davlatida soliqlar, o'lponlar va majburiyatlarning murakkab bir tizimi tarkib topgan. Asosiy soliq "xiroj" bo'lib, sug'oriladigan yerlardan olinadigan daromadning 30-40 foizini tashkil qilardi. Davlat devoni qo'shin va xon xonadoni sarflari va ularni saqlash uchun <<ixrojat>> nomi bilan soliq olinardi. Bog'lar, polizlar, bedazorlarga ham soliq solinar edi⁷.

Muhammad Shayboniyxon vofotidan keyin urushlar, qattiq kelgan qish, qimmatchilik va ocharchilikni keltirib chiqardi. Pulning qadrsizlanib uning qiymati va tushib ketdi. Mis tangalar qanchalik ko'paymasin, bozorlarda maxsulotlarning narxi orta boraverdi. Kumush tanga umuman muamiladan yo'qoldi va yangi kumush tangalar zarb etilmadi. Pulning inqirozini to'xtatish uchun mis tangaga bo'lgan ishanchni tiklash, kumush tanga zarb etishni yo'lga qoyish va pul islohatini o'tkazish zarur edi. Ammo pul islohati uzoq davom etib unga salkam 15 yillik vaqt ketgan. Ubaydullaxon Samarqand va Buxoro shaharlarida pul islohatini o'tkazdi. Bu davrda Buxoroda Ubaydullaxon, Samarqandda Shayboniylar sulolasining boshida Ko'chkinchixon turardi. Ular mustaqil siyosat yuritish edilar. Bu davrda yo'qori vaznli mis tangalar va kumush tangalar zarb etilgan. Ammo Buxoro va Samarqand tangalari bir xil emasdi. Faqat 1525 yilga kelib tanga bosishning umum davlat mezoniga o'tilib, bir misqolli (4,8 gramm) tanga muomilaga kiritildi. Bir misqolli kumush tanga 20 ta mis tangaga to'g'ri kelardi. Kumush tangalar ikki guruhga bo'lingan. Biri manbalarda "ko'hina", ikkinchisi "yangi tangalar" deb atalgan. Iqtisodiy tahlil tanganing toza kumushdan zarb etilmaganini ko'rsatadi. Standart tanganing probasi 90% kumush, 10% mis bo'lishi kerak edi. Shuning uchun ham hujjatlarda ham o'ndan to'qqiz yoki o'n to'qqiz deb atalgan. Bu har bir tanganing 4,3 grammi kumush, 0,7grammi esa mis bo'lishi shart edi. Buxoro, Samarqand Balx va Tashkentda kumush tangalar zarb etilgan. Bu shaharlarga Zarafshon vohasidagi Ko'fin, Karmana, Andijon Axxi, Kesh, Hisor va Yassi kiradi⁸.

⁷ R.Shamsutdinov, Sh. Karimov, O', Ubaydullayev, Vatan tarixi II-tom T.: <<Sharq>> 2010 89 b

⁸ Холиқов З. Жаҳонгирова Б. Сўнгги ўрта асрлар тангалари // Мозийдан садо, -№ 3. [39] - Б. 26-27. 2008.

Kuchkinchixonning tangasida quydagi yozuvlar bitilgan; Kuchkinchi Buxoro, 1526-yili (hijriy 932). O'lchami 26-29 millimetr, og'irligi esa 4,7 gramm⁹.

Tanganing old tomoniga pastdan yo'qoriga "Zarbi Buxoro 932 y." Tanganing o'rta qismida esa As-sulton al-xoqon al-Azam abu Muzaffar Kuchkinchi Bahodurxon. Olloh uning umri va hukumronligini ziyoda qilsin! deb yozilgan edi. Tanganing reversiga esa Ollohdan boshqa iloh yo'q! Muhammad uning elchisi deb bitilgan edi.

Shayboniylar tangalarida yozuvlarni bezatgan naqshlar bo'lib, bu bezaklar xalqa, gul, uchlari tugilgan to'rtburchak shakllarda bo'lgan. Yozuvlar ko'p hollarda nasx, yoki ko'fiy uslubida bitilgan. Ba'zan tamonlardan biridagi yozuv o'rniga turli naqshlar yoki hayvon, qushlarning rasmi tushirilgan.

Abdullaxon II ning pul islohoti. Abdullaxon II davridagi pul islohoti bir necha bosqichda o'tkazilgan. Uning islohoti kumushning qimmatlashishi davriga to'g'ri kelib kumush tanganing qadrini ko'tarishga qaratilgan edi. Tanganing kursi 1,5 barobar ko'tarildi. Eski tanga 27 ta mis tangaga teng bo'lsa, yangi tanga 30 ta mis tangaga tenglashgan. Abdullaxon II Buxoroni otasi Iskandarxonga topshirib o'zi Balx (1573), Hisor (1574), Samarqandni (1578) va Toshkentni (1582) egallagan paytda ham kumush tanga muhim ahamiyatga ega emas edi. Iskandarxon (1560-1583) nomidan zarb etilgan tangalar Buxoro, Samarqand Balx, Toshkent, Andijon, Axsi va Yassida chiqarilgan¹⁰. 1583 yilda Abdullaxon II ning otasi vafot etgandann so'ng, pul islohatining ikkinchi bosqichini o'tkazadi. Xon tanga zarb etish markazini mamlakatning poytaxti Buxoroga ko'chiradi. Har yili Abdullaxon II nomi bilan ko'plab tangalar zarb qilina boshlandi.

Buxoro tangasi o'zining bezagi, yozuvi va sifati bilan ajralib turardi. Abdullaxon II shaharning kundalik extiyoji uchun mis tanga ishlab chiqarishni yo'lga qoygan. Kumushning chetga chiqib ketishini to'xtatdi. XV asrda bo'lganidek, XVI asrda ham kumush va mis tangalarni tamg'alash uslubi

⁹Озода Раҳматуллаева, Авзар Сайдуллаев, Жамол Саломов, Ёрдамчи тарих фанлари 41-бет.

¹⁰ O'sha joyda.

davom etgan. Undan tashqari xonlikning iqtisodiy hayotida su'niy sug'orish asosiy rol oynaganligi sababli shayboniylar davrida suv inshootlariga ancha e'tibor berildi. **(2-rasm)**

1502 yili Zarafshon daryosida qurilgan suv ayirg'ich, 1556 -1586 yillarda Qashqadaryo, Zarafshon, Amudaryo, Murg'ob va Vaxsh daryolaridan chiqarilgan kanallar, suv ayirg'ichlar va suv omborlari buning yaqqol misoli bo'la oladi. Xonlik iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari qishloq xo'jaligi, savdo – sotiq va hunarmanchilik bo'lib, yer asosiy boylik hisoblangan. Shayboniylar davrida mulkiy munosabatlarda aytarli o'zgarishlar yuz bermadi. Dashti qipchoqdan kelgan o'zbeklar yer egaligi munosabatlarini boshdan kechiroytgan bo'lib, ular Movarounnahr yangi ishlab chiqarish munosabatlarini olib kelganlari yo'q, balki temuriylar davrida ijtimoiy – iqtisodiy tizimini qobul qildilar, hamda unga moslashdilar. Shayboniylar davrida chorvachilik va hunarmanchilik ancha rivojlangan bo'lib, ular yetishtirgan maxsulot ichki va tashqi bozorlarda sotilgan. Hindiston, Eron, Rossiya kabi malakatlar bilan savdo –sotiq qilingan. Shuningdek ishlab chiqaradigan maxsulotlari albatta manafakturaga asoslangan bo'lib unda kosibchilik, qog'oz, shoyi maxsulotlari hatto chet mamlakatlarida ham talab va extiyoj katta edi. “Mir Ibrohimiy”, “Sultoniyy” kabi a'lo sifat Samarqand qog'ozlarining dovrug'i uzoq-uzoqlarga ketgandi. Buxoro, Toshkent va Samarqand viloyatlarida temir bilan bir qatorda rudadan choyon quyish rivojlandi. Sovun ishlab chiqarish, misgarlik tosh va yog'och oymakorlik rivoj topdi. Xullas bu davrda hunarmandchilikning turli shakli mavjud edi. Bu hol mamlakatda nafaqat ichki savdoning balki xorijiy mamlakatlar bilan ham savdo-sotiq aloqalarining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Buxoro va Xivaning elchilari, o'rta osiyo savdogarlarini qo'shni mamlakatlar; Hindiston, Eron, Mo'g'iliston, Qozoqlar, Sibir dashtlari, no'g'aylar yurtiga, hatto Maskvagacha boshlab borganlar. Bunga javoban Buxoro xonligiga ham turli xorijiy mamlakatlardan elchilar kelganlar. Bu davrda Xitoy bilan o'zora bordi-keldi aloqalari keng yo'lga qoyilgan. Xitoydan ko'proq ipak gazlamalari, chinni

idishlar, dori-dormonlar, choy keltirilgan. Bundan tashqari, Abdullaxon II karvon yo'llarini qayta jonlashtirish, sardobalar, karvonsaroylar qurish va ta'mirlashga ahamiyat berdi. 1577-yilda Buxoroda yirik usti berk savdo rastasi Abdullaxon timi qurilgan. **(3-rasm).**

Iqtisodiyotning xonlikdagi asosiy tayanchi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari haqida gapirilganda, Shayboniylar hukumronligida ham Ashtarxoniylar hukumronligi davri ham davlat xazinasini to'ldirish asosan soliqlarga qaratilgan.

Shayboniylar davrida 40 ortiq soliq va jarimalar bo'lib, xiroj va zakotdan tashqari, tagjoy, jizya, ixrojat, tag'or, ulufa, qo'nalg'a, begar, madadi lashkar, boj, to'hfa kabi nomlar bilan atalgan soliq turlari va yasoq deb ataluvchi majburiyatlar bo'lgan. Soliq to'lovchi aholi fuqaro (raiyyat) deb atalgan. Joybor shayxlari kabi yirik ulomalar—din peshvolari barcha soliqdan ozod qilingan. Oliy tabaqaga xon va uning yaqinlari kirgan. Harbiy - ma'muriy boshqaruv tizimidagi amaldorlar umora, olim va shoirlar fuzola deb atalganlar, bundan tashqari yana qullar ham bo'lgan.

1601- yildan boshlab hokimiyat tepasiga Ashtarxoniylar keladilar. Yangi sulola Shayboniylardan o'g'ir meros nasib etadi. Amir Temur vafotidan keyin 200 – yil o'tib, Mavoraunnahr hududi siyosiy tarqoqlik o'zora qirg'inbarotlik urushlar natijasida xalq xo'jaligi va ishlab chiqarish butunlay izdan chiqib inqiroz sari yo'l tutgan edi. Xullas, iqtisodiy inqirozning tashqi sabablaridan biri chamasi, XVI asrda dengiz yo'llarining ochilib, XVII asrda qadimgi karvon yo'llari bo'ylab savdoning to'xtashi bo'lsa kerak. O'rta Osiyo xalqlari jahonning savdo va siyosiy markazlaridan uzilib qolib, yevropada fan va texnika sohasida erishilgan eng yaxshi kashfiyotlardan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lishdi. Shayboniylar sulolasi qulashi bilan xonlikka saylash butkul o'zbek qabilalarining sardorlariga bog'liq bo'lib qoldi.

Ashtarxoniylar davri ijtimoiy – iqtisodiy hayot masalasiga kelsak, albatta, Shayboniylar davlati inqirozga uchragandan so'ng hokimiyat tepasiga joniylardan Muxammad Joniy taxtga o'tirdi va XVIII asr o'rtalariga qadar

xukmronlik qilganlar. Bu davr mobaynida mamlakat iqtisodiy xayotida katta o'zgarishlar qilishgan. Ular XVII asrda kumush, mis tangalar zarb qilganlar, 1702 yildan oltin tangalar chiqarganlar. Shayboniylar dastlab tangalarning og'irligini bir misqol, ya'ni 4,8 gramm miqdorida zarb qilgan bo'lsalar. XVII asrga kelib tangalarni og'irligi 4,4 grammga tushib qoldi. Joniylarning zarb qilgan tangalari XVI asrdagi tangalardan farq qilmaydi. ular zarb qilgan kumush va oltin tangalardagi yozuvlar nasx uslubida berilgan¹¹. XVII asrda ham kumush tangalar **"eski"** va **"yangi"** tangalarga bo'lingan. Bu davrdan boshlab kumush tangalar a'lo sifatli sof kumushdan tayyorlangan. Mazkur tangalar **"eski"** deb e'lon qilinganidan so'ng 10% qimmatini yo'qotgan, keyinchalik tangalarda kumush miqlori kamayib borgan. XVII asrning o'rtalarida tangalarning yarmi kumushdan iborat bo'lgan. Shunday bo'lsa xam zarb qilingan tangalar **«yangi»** hisoblanib ular yuz foiz kumushdan zarb qilingan tangalardek muomalada yuritilgan. Ammo davlat ularni «eski» tangalar deb e'lon qilishi bilanoq tangalar yarim qimmatini yo'qotar edi.

Tangalarning 50% kumushdan zarb qilinayotganligiga qoniqmagan joniylar XVII-asrning oxirida kumush miqdorini 25% ga tushirdi. Mazkur tangalar xatto ko'rinishidan ham kumush tangalarga o'xshamas edi¹².

XVIII-asrning boshlariga kelib kumush tangalardagi kumush miqdori 9% ga tushib qoldi. **«Eski»** tangalarni qiymati tez-tez tushib turganiligi sababli yirik savdo ishlarini olib borish qiyinlashdi. Savdo ishlarini yengillashtirish maqsadida XVIII-asrning boshlarida ashrafiy yoki tilla deb nom olgan oltin tangalar zarb qilina boshlagan.

Masalan Ashtarxoniylar 8 ta hukumdorlarining faqat bittasi, Ubaydullaxon 1708-yilda pul islohati o'tkazganligini ma'lum ammo tarkibining 25 foizini kumush tashkil etuvchi tangalar o'rniga, tarkibida 9 foiz kumush bo'lgan tangalarni zarb etiradi va uning qiymatini oldingi tangalarga teng deb belgilaydi. Natijada pulning qadri 4 barabar kamayadi, norozilik kuchayib,

¹¹ Е.А.Давидович История монетного дела средней азии XVII-XVIII в.в. ДУШАНБЕ-1964 166-бет

¹² Ўша жой.

do'kondor va hunarmandlar maxsulotini sotmay qoyadilar, do'konlar yopiladi, savdo – sotiq ishlariga katta zarar yetadi¹³.

Ashtarxoniylar davrida soliqlarning qirqdan ortiq turi joriy qilingan. Bu hol ommaning qashshoqlashiga olib keldi. Ubaydullaxon hukmronligi davrida pul tizimi inqirozga uchradi va xalqni talash avjiga mindi. Bitta kumush tangadan, to'rtta tanga zarb ettirila boshlagan, bunday tangalarning qudrati to'rt barobar pasayib ketgan. Soliqlar amalda to'rt barobar oshirilgan. Bularning oqibatida mamlakat xalq xo'jaligi batamom inqirozga yuz tutdi, ochlik-yalong'ochlik oddiy bir narsa bo'lib qoldi. *“Oddiy xalq va kambag'allar,” deyiladi “Ubaydullanoma”da mushkul ahvolda qoldilar, kundalik yeyish – ichishdan mahrum bo'ldilar, hatto kafan uchun ham mato topilmay jonlarini xudoga topshirdilar*”¹⁴, deb yozilgan edi. Bunday ahvolga chiday olmagan xalq 1708 yilda Buxoroda qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olonchilar xon saroyiga yaqinlashib, saroyni o'rab oladilar. Ark darvozasiga tosh yog'dirib, xonni haqoratli so'zlar bilan badnom qiladilar. Qo'zg'olon bostiriladi, yangi tangalar qiymati ikki barobarga tushirilib, do'konlar qayta ochiladi. Siyosiy parokandalik, muttasil davom etib turgan o'zaro ichki kurashlar va fitnalar xalqni iqtisodiy jihatdan og'ir ahvolga solib qoyish bilan birga mamlakatdagi iqtisodiy holatni ham inqirozga olib keldi. Shuningdek, tashqi hujumlar, talon torojlar natijasida dehqonchilik vohalari xarob holga kelib qoldi, savdo karvonlarini talash hollari ko'payib ketdi. Bu esa o'z navbatida tashqi savdo aloqalarining cheklanishiga olib keldi. Tinimsiz olib borilgan urushlar qishloq xo'jaligi kabi shahar hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Tarixchi Sayida Nasafiy Buxoroda 200 xildan ortiq hunarmandchilik sohalari mavjud edi deb ma'lumot bersada, ular juda tor doirada bo'lib mamlakat iqtisodiy ahvolini yaxshilashga sezilarli ta'sir

¹³ Е.А.Давидович История монетного дела средней Азии XVII-XVIII в.в. ДУШАНБЕ-1964 169-бет

¹⁴ Muhammad Amin Buxoriy Ubaydullanoma. T.: “Fan” 1957 158-bet

ko'rsata olmadi¹⁵. Ubaydullaxon davrida o'tkazilgan pul islohati savdogarlar va hunarmandlarning noroziligiga sabab bo'lgandi.

Hunarmandchilik sohasidagi yetakchi tarmoqlar to'qimachilik va kulolchilik edi. Mamlakat iqtisodiyotida dehqonchilik va chorvachilik yetakchi soha sifatida bu davrda ham o'z mavqeini saqlab qoldi. Xalq xo'jaligining bu sohadagi maxsulotlarining turli-tumanligi ichki savdoga yo'l ochib bergan bo'lsa, tashqi savdodan keladigan katta foyda chet mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqani rivojlantirib, xon va uning amaldorlarini rag'batlantirar edi. Ashtarxoniylar davri asosiy iqtisodiy tayanchi masalasiga kelsak, albata eng avvalo suniy so'g'orish haqida so'z ketadi. Bu borada ham muayyan ishlar qilingan. Chunonchi, 1614-1615 yillari Imomqulixon buyrug'i bilan Qashqadaryodan Qarshi cho'liga kanal chiqarilib, natijada bir qator qishloq va qarovsiz yerlar obod bo'lganini bilamiz. 1633-1634 yillar Qumqo'rg'onda ham uning boyrug'i bilan kanal qazilgani ma'lum¹⁶. Shunga o'xshash tadbirlar, ayniqsa, sun'iy so'g'orish tizimlarini, inshootlarini ta'mirlash, tozalash ka'bilar ham muttasil ravishda olib borilgan. Lekin XVI asrdagi kabi keng ko'lamdagi sun'iy sug'orish qurilshiga oid ishlar kamroq bo'lgani ko'rinadi. Zero, bizga ma'lum manbalar shundan dalolat beradi. Mamlakat ichki va tashqi kurashlar iskanjasida qolgan bo'lishiga qaramay, savdo-sotiq ishlari birmuncha saqlanib qolindi. Asosiy savdo markazlari Buxoro, Samarqand, Qarshi, Toshkent, Balx va boshqa yirik shaharlarda savdo-sotiq ishlari ancha kengaydi. Shuningdek, bu davrda tashqi savdo aloqalari ham bir muncha rivojlanadi. Xususan, Rossiyaning turli savdo shaharlari, Hindiston, Eron, Qashg'ar, Turkiya bilan savdo-sotiq ishlari olib borildi. Tashqi bozorga asosan turli qishloq xo'jalik maxsulotlari, hunarmandchilik buyumlari va boshqalar chiqariladi. Paxta, teri, jun, turli matolarining eng asosiy xaridori Rossiya hisoblanardi. Shuningdek, Rossiya va Hindiston o'rtasidagi savdo-sotiq ham O'rta Osiyo savdogarlari katta o'rin

¹⁵ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. <<Шарқ>> Т.; 2000. 270-271 б

¹⁶ Ўша жойда.

tutardilar. Buxorolik savdogarlari alohida imtiyozlariga ega edilar. Tashqi savdo ishlarida hukmdorlarining katta-katta karvonlar yo'borib, foyda olishardi.

Dehqonchikning barcha sohaları (g'allachilik, paxtachilik, polizchilik, pillachilik, bog'dorchilik) o'z rivoj yo'lida ketavergan. O'sha paytlarda bo'g'doyning yigirma xili bo'lganini bilamiz. Masalan, sarg'ish; oqishining uch turi; bohorgi-qizg'ish; doni yirik ("tuya tish" deyilgan); bir tomoni oqish; bir tomoni qizg'ish; tog'oldi yerlarda o'sadigan, havodagi namlik bilan kifoyalanib sovuqqa bardosh bera oladigan nav; qora xoli nov; kuzgi; yem uchun ekiladiga; makka, yasmiq va hokazo¹⁷ yetishtirilgan bo'lib, ular ichki bozarda juda xaridorgir bo'lgan.

Xonlik iqtisodiyotining boshqa tarmoqlari, xususan hunarmandchilikda ham ilgarigidek an'anaviy yo'nalishlar to'quvchilik, temirchilik, qurolsozlik, durodgorlik, zargarlik, kulolchilik kabilar mavjud bo'lgan. Tayyor maxsulotlar (ipak, ipak kiyimlari, ip gazlama, qog'oz taqinchoqlar, quruq mevalar, qimmat boho toshlar,) ichki va tashqi bozorlarda sotilgan. Albatta ishlab chiqarish va savdo rivojida siyosiy barqororlikning ahamiyati katta. Shuning uchun ham mazkur sohalardagi rivoj siyosiy barqororlik yillari ancha susaygani ma'lum. Masalan; Ubaydullaxon davri markaz mavqiening susayishi, dargohdagi tartibning izdan chiqishi natijasida davlat xazinasi ancha bo'shab qolgan. Uni qoplash niyatida pul islohati o'tkazilib, pulning qiymati to'rt marotabagacha qadirsizlanib sonidan yo'tilmoqchi bo'lingan. Natijada teskari bo'lib chiqdi. Do'kondoru, shirkatlar ishini to'xtatib savdo qilmay qo'yadi. Xalq noraziligi boshlanadi. Ammo xon qattiq turib orqaga qaytmagan¹⁸.

XVIII asrning ikkinchi yarmida inqirozni bartaraf etish boshlandi. Savdo birmuncha rivojlandi. Qozoq cho'llari Rossiya tassarufiga o'tishi bilan O'rta Osiyoning Rossiya bilan savdo munosabatlari yaxshilandi. Xiva va Samarqand savdo markazlari sifatida o'z mavqeini tiklay boshladi, yangi shaharlar barpo

¹⁷ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. <<Шарқ>> Т.: 2000. 270-271 б

¹⁸ Ўша жойда.

etildi. Tovar–pul munosabatlarining rivojlanishi xonliklarda davlat hokimiyatini birmuncha mustahkamlashnisha imkon berdi.

Iqtisodiy va madaniy hayot. Buxoro xonligi aholisining katta qismi dehqonchilik bilan shug'ullangan. Yerning ko'p qismi davlatning qo'l ostida bo'lib, u "amlaki podshohi" yoki "mulki sultoni" deb atalgan. Yerning 2-qismi odamlarning xususiy mulki hisoblanib, uning talay qismi boylarning qo'l ostida edi. Bunday yerlar "mulk yerlari" deb yurgizilgan. Yerning 3-qismi masjid, madrasa va mozorlarni moddiy jihatdan ta'minlash maqsadida vaqf nomi bilan berilgan. Davlat yerlarining ma'lum qismi amirlar tomonidan xizmat ko'rsatgan nufuzli kishilarga umr bo'yi foydalanish uchun in'om qilingan. Bu xildagi yerlar "suyurg'ol" yoki "tanxo" nomi bilan atalgan. Dehqonlar paxtachilik, ipakchilik, kanopchilik, polizchilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Minglab kishilarni qamrab olgan hunarmandchilik keng ko'lamda rivojlangan. Uning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarning muhim buyumlari sifatida juda qadrlangan. Buxoro, Samarqand, Xo'jand va Toshkent yirik hunarmandchilik markazlari sifatida shuhrat qozongan. Buxoro xonligida ichki va tashqi savdo yo'lga qo'yilgan bo'lib, Afg'oniston, Hindiston, Xitoy, Turkiya va boshqa mamlakatlar bilan aloqalar o'rnatilgan. Xonlikning Rossiya bilan elchilik va savdo aloqalari rivojlangan. U xonlik uchun tayyor mahsulotlar bozori sifatida katta ahamiyat kasb etgan. Madaniyat sohasi boshqaruv tizimi va hokimiyatning o'jizligi orqasida u zamon talabiga monand ravishda jadal rivojlanmadi. To'g'ri, madrasalar qurildi, lekin ularda, asosan, fors va arab tillari, diniy ta'limotlar o'qitildi. Dunyoviy fanlarga deyarli ahamiyat berilmadi. Ulug'bekning mashhur rasadxonasi yer qa'riga ko'milib ketdi. Ko'proq diniy va tarixiy asarlar yozildi. Ko'p shoirlar ham yetishib chiqdi. Bu borada Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Kamoliddin Binoiyning ham shu nomdagi asarlarini ko'rsatish mumkin. Fayzulloh ibn Ro'zbexon "Mehmonnomayi Buxoro" va Zayniddin Vosifiy "Badoe' ul-vaqoe'" nomli asarlarni yozdilar. So'fi Olloyor, Muhammad Balxiy, Sayid Kamol (Fitrat), Saydo Nasafiy, Turdi va boshqa 100 dan ortiq shoirlar ijod qildilar. XVI-XVII asrlarda Buxoro miniatyura maktabi qaror topgan. XVIII asr o'rtalarida Buxoro

saroyidagi sozanda, xonanda va bastakorlar ijodiy faoliyatida "Shashmaqom" shakllangan. Bu davrda me'morchilik san'atining bir qancha namunalari yaratilgan.

Shunday qilib Buxoro xonligida pul munosabatlari bozorlarda erkin harakatlanishining yo'lga quyilishi va tovar maxsulotlarining ichki va tashqi bozorlarda muhim ahamiyat kasb etganligini bilish mumkin.

1.2 Tovar-pul munosabatlari bo'yicha xonlikdagi mavjud tizim.

Xonlikda an'anaviy ishlab chiqarish, Shayboniylar sulolasi hukumronligida ham Ashtarxoniylar sulola hukumronligida davrida ham siyosiy qarama-qarshiliklarga qaramay o'z davri tarixida iqtisodiy yutuqlar talaygina bo'ganligi bizga tarixdan ma'lum. Shunday qilib ishlab chiqarishga kelsak shayboniylar zamonida iqtisodiy yutuqlar bir muncha bo'lgan, jumladan 61 xil hunarmandchilik turi bo'lgan, ulardan omoch yasash uning asosiy qismlari buyintiriq, tish unga qoplama, tuquvchilik, tuquvchilik dastgohlari, tikuvchilik (paxta, kashtachilik, gilamchilik ipak matolari), kulolchilik, temirchilik, kosibchilik qurolsozlik, zargarlik, durodgorlik, qog'oz qurilish ashiyolari shu jumladan yangi sohalar, chuyan quyish, zambarak va miltiq yasash, shisha tayorlash va shu kabi qator sohalar foaliyat ko'rsatib, ichki va tashqi bozorlarga sotiladigan turli-turdagi maxsulotlar tayorlangan¹⁹.

Bu maxsulotlar ipak, jun, ip gazlamalar pilla, gilam quruq mevalar, shirinliklar, qorako'l va <<Mir Ibrohim>>, <<Sultoniy>> kabi a'lo sifat Samarqand qog'ozlarining dovrug'i uzoq- uzoqlarga ketgandi²⁰.

Xullas bu davrda hunarmandchilikning turli- tuman shakllari bo'lgan. Hunarmandlar tovar maxsulotlarini shahar atrofidagi yoki shahar ichkarisidagi bozorlarga olib borib ayirboshlashganlar. Xonlikning Buyuk ipak yo'li kesishgan shaharlarida Toshkent, Yassi, Xo'jand, Samarqand, Nasaf, Buxora, Karmana,

¹⁹ Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.: <<Шарқ>> 2000 248-249 б

²⁰ R.Shamsutdinov, Sh. Karimov. O'Ubaydullayev. Vatan tarixi Т.: <<Sharq>> 2010 98 б

Kesh, Termiz, Balx va boshqa shaharlarda bozor va karvonsaroylar har kuni ishlab turgan. Shayboniylar soʻlolasi Abdullaxon II hukumronlik davrida oʻz zamonasining, eng zamonaviy bozori 1577-yilda Buxoroda yirik usti berk savdo rastasi – Abdullaxon timi qurilgan²¹. Shaharlar hamisha mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida katta ahamiyatga ega boʻlganligi tarixdan maʼlum. Chunki shaharlar davlat hakimiyati tayanchi, hunarmandchilik markazi, madaniyat hamda ilm-fan vazifasini oʻtagan.

Xonlikning eng yirik shaharlaridan biri Samarqand edi. Samarqand shahrida kulolchilik, choyon quyish (degrezlik), teri oshlash, qogʻoz kiyim-kechak, qurol-yarogʻ ishlab chiqaruvchilar, baxmalbotlar, kimxobgarlar, chitgarlar, boyoqchilar, poʻstindoʻzlar, moʻynadoʻzlar mahallalari va bozarda rastalari boʻlgan²². Xonlikda qancha siyosiy qarama-qarshilik va parokndalik sodir boʻlmasin, aholining hunarmand qatlami tovar va maxsulotlarini sotganlar yoki ayirboshlaganlar. Xonlikning yana bir yirik markazlaridan biri Buxoro shahri edi, unda bir nechta karvonsaroylar boʻlib, ularda musofirlar va mahalliy savdogarlar istiqomat qilganlar. Karvonsaroylarda ombor, doʻkon, ustaxonalar va mehmonxonalar boʻlgan. Savdo ishini esa karvonboshi - xonlikdagi barcha savdo ishlarining boshqaruvchisi boshqargan. Shaharda hunarmandchilikning asosiy turlaridan biri toʻqimachilik boʻlgan. Buxoro olchasi, boʻzi, boʻzga gul bosish yoʻli bilan tayorlanadigan chiti, shoyisi, Buxoroning toʻq qizil rangli boxmali mashhur edi. Yigirilgan ipdan roʻmol, choy-shab, salla toʻqish ham keng tarqalgan.

Hunarmandchilikning ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan yana biri – temirchilik va misgarlik boʻlib, oʻroq pichoq, shuningdek, qurol-yarogʻ yasashgan. Temirchilar qilich, xanjar, oybolta, nayza, qalqon, kamon va uning oʻqini yasashar edilar²³. Undan tashqari zargarlik, kulolchilik, yogʻochsozlik ham muhim soha hisoblangan. Yogʻochdan eshik, beshik, deraza, arava, sandiq, qayiq va boshqalar yasaldilar. Ayniqsa yogʻoch oymakorligi alohida ahamiyatga molik boʻlgan.

²¹ Murtazayeva R.H. Oʻzbekiston tarixi. T.: <<Yangi asr avlodi>> 2003 19 6

²² R.Shamsutdinov, Sh. Karimov. Oʻ. Ubaydullayev. Vatan tarixi T.: <<Sharq>> 2010 99 6

²³ Murtazayeva R.H. Oʻzbekiston tarixi. T.: <<Yangi asr avlodi>> 2003 48 6

Novdalardan savatlar to'qilardi . Undan tashqari uy sharoitida tamat tayyorlash, gilam to'qish, oshlangan charmdan egar-jabduqlar, ayillar, pichoq qinlari, hamyonlar tikish ham keng rivojlangan,²⁴ bo'lib tayyor maxsulot yoki bo'lmasa yarim tayyor maxsulotlarini bozorlarga chiqarganlar.

Xonlikning xo'jalik turlari haqida gapiriladigan bo'lsa, odatdagidek so'g'orish ishlari qay darjada yo'lga qo'yilgani haqida aytish joiz. Bu borada shayboniylar davrida ham bir qator tadbirlar oshirgani ma'lum. Bunda so'g'orish ishlarida tabiiy tayanch bo'lib kelgan an'anaviy manbalar - Zarafshon, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh, Murg'ob daryolari imkoniyatlaridan ham foydalanilgan, shubxasiz. Masalan, <<Mehmannomayi Buxoro>> muallifi Sirdaryo daryosi imkonlari haqida so'z yuritar ekan, bu daryoning kechuv joylaridan, irmoqlaridan ko'plab katta anhorlar qazilgani va ular suvi bilan atrofdagi ekinzorlar sug'orilganini alohida ta'kidlaydi. Ayniqsa Sig'noq atrofini obodonlashtirishda bu yaqqol ko'rsatilgan²⁵. Umumman olganda, Muhammad Shayboniixon hukumronlik yillari va hatto uning o'limidan so'ng mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy beqororlik yillari ham su'niy so'g'orish ishlarining ahamiyati yo'qolmagan. Buni biz XVII asrning yigirmanchi yillarida tuzilgan vaqfnomalardan birida keltirilgan ma'lumotlar orqali ko'rishimiz mumkin.

Chunonchi, birgina Kesh viloyatida Qashqadaryo irmoqlari bo'lmish Surxob, Rudakdan atrof qishloqlarga qazilgan o'ndan ortiq kanallar ishlab turgani ma'lum²⁶. Lekin sun'iy sug'orish ishlari XVI asrda gurkiragan payt bu Abdullaxon II zamoniga to'g'ri keladi. Fikrimiz isboti sifatida 1582 yili Zarafshon daryosida qurilgan Karmana ko'prigi (Puli Karmana) – suv ayirg'ichi, 1583 yili Nurota tog'larida qurilgan Oqjab suv ombori, Zarafshon daryosi suvini tegishli huhudlarga taqsimlashda katta ahamiyat kasb etgan Mehtar Qosim, Chohorminor, Jondor ko'prik suv ayirg'ichilari, Zarafshon daryosidan Jizzax vohasigacha tortilgan va Sangzor daryosi bilan tutashuvchi Tuyatortar kanali,

²⁴ Folib Qurbanov. Qadimgi Buxoro buyumlari zamon jilosida. "Moziydan sado" N-2 2007

²⁵ Мехмонномайи Бухоро 166-167 бетлар.

²⁶ Мукминова Р.Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. Вакфнома Тошкент, 1966, с 288,

Murg'ob vohasidagi Havuzixon suv ombori, 1556-1557 yillari qurilgan va Samanjuq dashtini obodonlashtirishda katta ahamiyat kasb etgan Xoja Kaab kanali, 1559-1560 yillari bunyod etilgan Afshona kanali, 1568-1569 yillari Amudaryodan Chorjuygacha tortilgan Murg'ob daryosidan Marv atrofiga chiqazilgan kanallar, 1577-1579 yillarda amalga oshirilgan Hisor va Ramiton, 1579-1585 yillari Vaxsh daryosidan qazilgan sun'iy sug'orish inshootlar kabilarni keltirishimiz mumkin²⁷. Chunonchi, hujjatlarga ko'ra, ana shunday tadbirlarda o'n minglab mardikorlar qatnashganlar. Bular, albatta, yirik suv inshootlari va xo'jalik ishlarida. Ulardan tashqari mahalliy ahamiyatga molik anhorlar, ariqlar qazish, ularni tozalash, sardobalar qurish kabi tadbirlar ham doima amalga oshirib borilganini nazarda tutish lozim. XVII asrdagi feodal urushlar Movarounnahrning xo'jalik inqirozini chuqurlashtirdi. Feodallarning moliya ishlarini o'z holiga tashlab, dehqon xo'jaliklarini tushkun holga keltirgan bo'lsada, mayda dehqon xo'jaliklari ko'lamida yirik feodallarning mulklari ajralib ko'zga tashlanardi. Masalan, Imomqulixonning ukasi Nodir Muxammadning yilqilar uyurini hisobga olmaganda ostonasida 800 bosh nasldor oti, 8000 bosh qoyi bor edi. Buxoroda dala ishlarida ko'plab qullar ishlashardi. Imomqulixonning zamondoshi Yalangto'shbiyning 3000 nafar quli bo'lib, ularni shahar qurilishlarida ishlatgan. Feodal munosabatlarining kuchayishi uning ayrim vakillarining harbiy-siyosiy qudratining ortishiga olib keldi. Yalangtushbiy va unga o'xshashlar katta qo'shinga ega bo'lib, Boburiylar mulki Qobulga, Xurosonga yurishlar qilgan²⁸. Yo'qorida ko'rinib turganidek u yoki bu zadogonlarning ko'chayishi taxtda o'tirgan xonning kuchli yoki kuchsiz siyosat yuritishiga bog'liq bo'lgan.

Shayboniylar hukumronlik davrida ham Ashtarxoniylar hukumronligi davrida ham bir necha bor pul islohatlar o'tkazilgani tarixdan bizga ma'lum. Shayboniylar sulolasi hukumronligi davrlarida ko'proq pul islohati o'tkazilgan, ammo Ashtarxoniylar sulolasi hukumronligi davrlarida ham tanga zarb etish boyicha

²⁷ Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.: <<Шарқ>> 2000 248-249 б

²⁸ О'. Тухтамисов, Ш.Абдирашиев, А.Ю'лдошев, Ю.По'латов, О'збекистон тарихи. Самарқанд 2008 йил 58 бет

Shayboniylar sulolasidan qolishmagan. Masalan uzoq muddat mobaynida Ubadullaxon isloxati va undan keyingi shoh Abulfayzxon davrida muomiladagi kumush tanga sifatida “bir qavat” deb nom olgan tanga qo’llanilgan. Bizga ma’lum ma’lumotlarga ko’ra aynan mazkur “bir qavatli” tangalar yangi nominal sanalgan. U Ubaydullaxon va Abulfayzxon davridagi hujjatlarda **تنگه یکی عرفی**

ishonchga ega bo’lgan namunaviy bir qavatli tangalar deb tariflangan²⁹. Bazida **اعتباری** ishonchga ega so’zi **رایجه الوقت** hozirda aylanuvchi (muomilada) so’zi bilan almashtirilgan bo’lib, umumiy ta’rifi **عرفی رسمی** **تنگه یکی عرفی** qabul qilingan, va muomilada bo’lgan “bir qavatli” tanga tarzida tariflangan³⁰. Boshqa hollarda ta’rif biroz qisqa bo’lgan bo’lib, bir yoki bir necha elementlar mavjud emas va **وقت** **رایجه** umumiy muomilada bo’lgan bir qavatli tanga **عرفی رسمی** **تنگه یکی عرفی** umumiy tanga namunaviy, umumiy bir qavatli tanga barcha keltrilgana’riflarda “bir qavatli” tangalar hattoki kumush deb atashga ham loyiq bo’lmagan, negaki ularda kumush juda oz miqdorda bo’lganligi sabab, tangalar avvalgidek tanga nomi bilan atalgan bo’lsada, ulardan vos kechishga to’g’ri kelganiga e’tibor berish lozim, shuningdek ularni yodga oluvchi hujjatlar yoki savdogarlar hujjatlari bo’lgan. Demak mazkur tangalar haqiqatdan ham muomilada bo’lgan³¹. Yo’qorida keltirilgan ma’lumotlarda ko’rinib turganidek Ashtarxoniylar so’lolasi hukumronligi davrida ham islohatlar o’tkazilgan, lekin Shayboniylar so’lolasi hukumronligi davridagi tangadagi kumush miqdori kamaytirilgan, ammo muomilada bo’lgan. Yo’qorida keltirilgan ma’lumotlardan tashqari boshqa ma’lumotlarda “bir qavatli” tangalar, boshqa tangalar orqali boshqa ta’riflarga ham ega bo’lgan. Mazkur boshqa tangalar “ikkitalik” va “o’ndan uch yarim” nomlari bilan nomlangan. Bunday qo’shimcha ta’rif “bir tamonli” tanganing “ikkilik tanga” yarmiga tengligini anglatgan. Masalan **مبلغ شش هزار تنگه یکی رسمی عرفی** که مبلغ سه هزار تنگه دوی ده سه نیمی رایجه Masalan mazkur vaqtda amalda bo’lgan ikkilik tanganing uch yarim o’nlik

²⁹ Е.А.Давидович История монетного дела средней азии XVII-XVIII в.в. ДУШАНБЕ-1964 57 бет

³⁰ Е.А.Давидович История монетного дела средней азии XVII-XVIII в.в. ДУШАНБЕ-1964 57 бет.

³¹ Ўша жойда.

tanganing, uch mingiga teng bo'lgan³². Ubaydullaxon davrida va Abulfayzxon davrida uning yarimtalik o'nlik tangalari shunchaki hisob birliklarida bo'lmagan. Ular bor-yo'g'i muomilada davom etib kelayotgan tangalar bo'lgan. Hujjatlarda ular ham “birlik” (bir ko'rinishli) tangalar bo'lib, o'sha davrda “hozirda muomilada bo'lgan tangalar” deb atalgan. 1131/1719 y. bir sovdoda “ikkilik” tangalar hattoki ba'zi hollarda مبلغ دوازده هزار تنكه ده سه (و نیمی) دوی كه مبلغ tangalar hattoki ba'zi hollarda ishonchga sazovor bo'lgan. Bir qavat tanganing yigirma to'rt mingiga teng bo'lgan ikkilik, o'nlik tanganing o'n bir minggi so'mmasidagi bir qavatli tangalar orqali aniqlangan³³, “o'ndan uch yarim” tangalari qanday kelib chiqqan va kimning nomidan zarb etilgan? 1708 yili islohat tahlili shuni ko'rsatadiki tarkibida 35% kumush bo'lgan Ubaydullaxonning islohat oldi “ikkilik” tangalari “o'ndan uch yarimlik” tangalar deb atalgan. 1712 yilgi hujjatlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Ubaydullaxonning mazkur “o'ndan uch yarimlik” islohat oldi tangalari Abulfayzxon davrida ham muomilada bo'lgan. Ubaydullaxon تنكه يکی ده سه نیمی رایجه الوقت بخاری الضرب عبید الله خانی bo'lgan. Ubaydullaxon davrida muomilada bo'lgan “o'ndan uch yarimlik” bir qavat tangalari “o'ndan uch yarimlik” tangalar bir qavat tangalar deb ham yuritilgan bo'lib mutloqa noto'g'ri, balkim hattod adashib دوی o'rniga يوزيب يوبورگandır, “ikkilik” tangalarida savdo amalga oshirilgan holatlari ma'lum³⁴. Ma'lumotlarda “o'ndan uch yarimlik tangalar” deb nomlanuvchi tangalarni Ubaydullaxonning tangalari deb atash mumkin, negaki ularning hammasi “ikkilik” deb nomlangan bo'lib, 35% kumushga ega bo'lgan va barcha hujjatlarda “bir qavat tangalar” bilan bog'langandir.

Ubaydullaxonning mazkur 35% li tangalarni ta'riflash uchun ularning hammasi, o'sha davrlarda hujjatlar Samarqandda rasmiylashtirilgan bo'lsada, Buxoro tangalari deb nomlangan³⁵ demak Buxoro xonligining qaysi bir yirik shahrida qanday hajmda va nomdagi tangalar zarb etilmasin, Buxoro tangalari eb atalgan ekan.

³² Ўша жойда.

³³ Е.А.Давидович История монетного дела средней азии XVII-XVIII в.в. ДУШАНБЕ-1964 60 бет

³⁴ Ўша жойда.

³⁵ Ўша жойда.

Ma'lumotlarga ko'ra Ubaydullaxon probani oldingilariga nisbatan yaxshilashga majbur bo'lgan va u Subxonqulixonga nisbatan 35% oshib borgan. So'ngra u tanga tarkibidagi kumushni to'rt barobarga kamaytirib, turli xil probali tangalarning har ikkalasini muomilaga chiqishiga ruxsat bergan. 1720 yili ma'lumotlarga ko'ra Abulfayzxon davrida har ikkala tangalar muomilada bo'lishda davom etgan³⁶.

To'g'ri o'sha vaqtdagi ma'lumotlarga ko'ra asasiy muomilada kurs bilan (bir qavat) tangalar muomilada bo'lgan. Ikkilik tanganing yarmiga teng bo'lgan bittalik tangalar bilan ham to'lovlar amalga oshirilgan holatlar ham bo'lgan, biroq ularni ta'riflab yozilgan matnlarning bir qismi tushirib qoldirilgan. Har qanday holatda ham o'ndan uch yarim tangalar bir vaqtning o'zida muomilada bo'lgan. 1712 yilgi Buxoro taxtida Ubaydullaxon emas, Abulfayzxon o'tirgan chog'da ham Ubaydullaxon tangalari deb yo'ritilgan³⁷. Yo'qorida takidlanganidek oliy taxtga qaysi hukumdor bo'lmasin uning chuqur refarmatsiyasi o'tkazilganda, undan keyingi avlod hukumdorlarida davom etgan bo'lsada lekin tangadagi kumush miqdori kamaytirilib oldingi tanga pullarga tenglashtirishga harakat qilingan.

Tabiiyki, Ubaydullaxon va Abulfayzxon davrlarida bozorlarda "ubaydullaxon" tangalaridan tashqari tangalar bo'lganmi degan savol tug'iladi. Eng avvola Abulfayzxon o'z nomidan ham tangalar zarb qildirganligihaqida gapirish kerak. Hozirda 4 turdagi tangalar ma'lum. Ikki xil tangalar tahlil qilinganda bittasida atiga 17,57% kumush, ikkinchisida esa 45,62% kumush borligi aniqlangan. Shuningdek qisqa vaqt Ashtarxoniylar (Joniylar) davlatini bosib olgan Nodirshoh zarb qildirgan tangalar haqida eslamaslik noo'rin. Rasman taxtda Abulfayzxon o'tirgan bo'lsada tangalar Nodirshoh nomidan zarb qilingani qiziq. Bu yerda السلطان نادر – al-sulton Nodir, ضرب بخارا – zarb buxoro, degan so'zlarni ko'rishimiz mumkin³⁸. Demak, Ashtarxoniylar hukumdorlarining so'nggi vakllaridan biri Abulfayzxon davrida xonlik bir muddat Safaviylar davlatiga

³⁶ Ўша жойда.

³⁷ Е.А.Давидович История монетного дела средней азии XVII-XVIII в.в. ДУШАНБЕ-1964 60 бет.

³⁸ Ўша жойда.

qaram bo'lib qolgan chog'da, Safaviylar hukumdorlari Nodirshoh nomidan ham tangalar zarb etilganini bilishimiz mumkin.

XVIII asrning birinchi yarmida bozorlarda XVII asr tangalari uchragan. Bu xulosa, eng avvalo Subxonqulixon tangalari muomilada bo'lganiga asoslanadi. Undan tashqari 1710 yildagi Ubaydullaxon davridagi pullar quydagicha ta'riflangan سره يکمثقالی ده سه “tashqi nuqsonlarsiz, bir misqolli, o'ttiztalik tangalar” bo'lsada, “o'ttiztalik” tangalar kursi oxirida aniqlanib, va shunga asoslani, bu yerda gap shunchaki oxirida نیمى tushirilib qoldirilgan va bu yerda gap Ubaydullaxonning o'sha vaqtlar keng tarqalgan “o'ndan uch yarimlik” va “ikkilik” tangalari haqida gap ketmoqda. Biroq shuni takidlash kerakki, bu ta'rif to'raligicha, odatiy barcha hujjatlarda سره يکمثقالی deb ta'riflangan – “bir misqolli”, tashqi nuqsonlarsiz “kumush tangalar” ta'riflanishidan keskin farqlangan. 1710-11 yildagi hujjatlarda o'z turiga ko'ra ta'rif XVII ta'riflariga (tasvirlash) qushilib ketadi va hattoki 1669 yildagi hujjatlardagi تنکه ده سه نقره ta'riflanishni takrorlaydi. Oxirgi keltiruvda, biz bu yerda gap o'ndan uch yarimlik tangalar, yani kumush darajasi 30% bo'lgan tangalar haqida gapirayapmiz. Agar 1710-11 tangalarni, XVII asrdagi Ubaydullaxon ajdodlaridan qolgan eski o'ttizlik tangalar deb hisoblasak, unda ular Ubaydullaxonning o'zining “ikkilik” va “birlik” tangalari emasligi ayon bo'ladi. Abulfayzxon davridagi kumush tangalarni ta'riflash uchun 1741 yilda Buxoroda bo'lgan Tomnson hisobotlaridan o'zlashtirgan Xanvey ma'lumotlarini o'rganish juda qiziq. Uning ma'lumotlariga ko'ra Buxoroliklar o'zlarining kumush tangalariga ega bo'lmagan, mis tangalarni esa ular “tanga” deb atab, ularning 50 dan 80 tagachasi oltin tangaga mos kelgan³⁹. Bundan kelib chiqadiki Buxoro bazorlarida “mis” ko'rinishida bo'lgan tangalar muomilada bo'lgan deyish mumkin. Bular faqat Ubaydullaxonning isloh qilingan “bir xil shakldagi” tangalar bo'lib, ular tanga deb atalib, ularda deyarli kumush bo'lmagan. Joniylarning boshqa past probali tangalari (22,5, 25% li) yamon ko'rinishga ega bo'lsada, kumushsimon

³⁹ Е.А.Давидович История монетного дела средней азии XVII-XVIII в.в. ДУШАНБЕ-1964 162 бет

bo'lib ularni mis tangalar deb atash qiyin. Undan tashqari, 1720 yilgi hujjatlarga ko'ra aynan bir xil ko'rinishli tangalar – kumush miqdorining aylanish darajasini belgilab bergan. Agar ular 20 yil o'tib ham bozarlarda muomilada bo'lgan bo'lsa, buning ajablanarli joyi yo'q. Tomnsonning va Xanveyning ma'lumotlarining boshqa bir qismida tangalarning o'lchamiga qarab bir oltin tangaga 50 tadan, 80 tagacha to'g'ri kelgan bo'lib, boshqa ma'lumotlar bilan deyarli bir xil. Albatta “mis tangalar”ni Tomnsonning o'zi ko'rgan⁴⁰ligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Agar u o'sha payt bozarlar muomilada bo'lgan, boshqa yo'qori probali tangalarni ko'rgan bo'lsa ham, buning ajablanarli joyi yo'q. Buxoroliklar o'sha paytlar muomilada bo'lgan turli probali va turli kursli kumush tangalarga qarab kurslarni belgilashgan. Ular tomonidan keltirib o'tilgan raqamlar Ubaydullaxon va Abulfayzxon davridagi kumush aylanish tizimi to'g'risidagi xarakteristikaga unchalik ham mos kelmaydi.

Agar Tomnson ma'lumotlariga ko'ra bir oltin tanga uchun 50 tadan 80tagacha kumush tangaga to'g'ri kelgan bo'lsa, oxirgi raqamlar mis deb atalgan tangalarning eng past baholaridir. Boshqacha qilib aytganda bir oltin “tillo” Ubaydullaxonning 80 kumush tangasiga teng bo'lgan. Bu orqali kumushning oltinga, o'sha davrdagi nisbatini hisoblash imkonini to'g'iladi. “Bir turli” (ko'rinishli) tangalar “o'ndan uch yarimlik” tangalarning yarmiga teng kelgan. Ularning tarkibida 9% kumush bo'lsada ular “ikkilik” tanganing yarmi sifatida majburiy muomilada bo'lgan. Demak shunday ko'rinishda bo'lgan ular tarkibida $35:2 = 17,5\%$ kumush bo'lsa, demak shunda $80 \text{ tanga} \times 17,5\% : 100\% = 14 \text{ toza}$ kumushning III misqoliga teng bo'lgan. Bu degani 1741 yilda oltin kumushga nisbatan 1:14 teng bo'lganini anglatadi. Avvalgi asrlardan XVIII asrning birinchi yarimiga o'tgan boshqa yo'qori probali tangalar Tomnson ma'lumotiga mos keladi. agar 1741 y “o'ntalikning ikkilik, to'rtlik” tangalar muomilada bo'lgan bo'lsa, ularning 60-63 tasi, 1 oltin tangaga mos kelgan. Agar “o'ndan ikki yarimlik” tangalar muomilada bo'lgan bo'lsa ularning 56 tasi 1 oltin tangaga mos kelgan,

⁴⁰ Ўша жойда.

“o’ndan uchlik” va “o’ndan uch yarimlik” tangalar mos ravishda 1 oltinga 46 va 40 tasi to’g’ri kelgan⁴¹. Bu raqamlar Tomnson eng kam (50 dona) ko’rsatgichidan pastroq. Balki XVII asrdagi “o’ndan uch” va Ubaydullaxonning “o’ndan uch yarim” isloh qilingan tangalari muomiladan chiqib, bozarlarda kam uchragandir. Agar biz Abulfayzxonning o’zi zarb qildirgan yo’qori probali tangalari haqida gapirsak, ular Tomnson keltirgan ma’lumotlarga mos kelmaydi. Negaki ularning 30 tasi bir tillo tangaga mos kelgan. Afsuski, Abulfayzxonning barcha to’rt tangasida yillari keltirilmagan. Agar Abulfayzxonning to’rt turdagi tangalari so’ngi zarb etilgan davrga to’g’ri kelsa, ya’ni 1741 yildan keyin zarb qilingan bo’lsa, Tomnson ularni inobatga olmagan. Agar ular 1741 yilgacha zarb qilingan bo’lsa, ular bozarlardan Abulfayzxonning eng past tangalarini siqib chiqarib, yo’q bo’lib ketgan. (ya’ni Abulfayzxon ajdodlari tomonidan zarb etilgan tangalar tomonidan) XVIII asrning yarmidan boshlab, kumush tangalarning yaxshilashi roy bermagan. Chunki Abulfayzxon hukumronligining so’nggi yillarida saroy amaldorlarning mavqie oshib borgan va mustaqil siyosat yurgiza olmagan, ulardan Muhammad Hakimbiy edi.

Masalan Muhammad Raxim (1753-1758) tangalarida 30% miqdorigacha kumush, va 70% miqdorigacha miqdorda mis bo’lganini ko’rsatadi. Quydagi tahlil natijalari shunday. (1-ilova.)

Yo’qorida ko’rinib turibdiki u yoki bu xonning taxtga o’tirishi bu tangalarning kumush miqdori kamayib yoki ko’payib turgan.

Undan tashqari XVI—XVIII asrdagi ma’lumotlarda, odatda, pul ma’lumotlari keltirilganda ularning og’irligi keltirib o’tilgan. XVI asrda Shayboniylar davrida (Kuchkinchixon va Abdullaxon islohatidan so’ng) va XVII—XVIII asrlardagi Ashtarxoniylar davrida (Abulg’ozixon islohatigacha) asosiy kumush nominal – tanga 1 misqol og’irlikda zarb etilgan. Shuningdek XVIII asrda Ashtarxoniylarning tillo tangasi uchun 1 misqol og’irlikda bilgilangan. Trafik uslubda o’rnatilgan o’rtacha og’irlikgi, qonuniy og’irlikka ega bo’lgan.

⁴¹Е.А. Давидович История монетного дела средней азии XVII-XVIII в.в. ДУШАНБЕ-1964 163-бет

Maskur holatda Shayboniylar va Ashtarxoniylar kumush tangalarining o'rtacha og'rligi ishqalanishiga ko'p uchragan holatda misqolni o'lchash qiyin bo'lgan. Biroq Shayboniylarning kumush tangasi va Ashtarxoniylar tillo tangasining katta miqdorda o'rtacha vazni juda qiziq bo'lib, har ikkalasida ham 4,7 gr gat eng bo'lgan. Bu degani mazkur tangalarning haqiqiy vazni, ya'ni misqol vazni 4,7 gr dan og'ir bo'lgan. Hijriy 913—914 (1507—1509) yillarda juda qiziqarli pul islohati tahlili Shayboniyxon misqolining 4,8 gr teng ekanligini bildiradi⁴². Misqol hajmlari haqidagi nunizmatika ma'lumotlarini Tomnson, Xanvey va Meyendorflar ham tasdiqlaydilar. Tomnson 1741 yilda Buxoroda bo'lgan u 85,5 Buxoro misqoli, 1 rus funtiga teng deb tasdiqlaydi⁴³. Demak bir misqol $409,512:85,5=4,79$ gr ga teng bo'lgan. Shunday qilib Buxoro xonligining so'ngi yillarda 1 misqol hajmi 4,8 gr ga, aynan 4,8 gr ga teng bo'lgan. Mazkur misqoldan og'irlik dirhami oson ayirilgan. O'sha vaqtlarda Buxora dirham va misqol munosabatlari qonuniy (o'lchav birligi) bo'lgan bo'lib, dirham misqolning $7/10$ qismiga teng bo'lgan. Yo'ridik hujjatlarda tez—tez وزن سبعة yeti og'irligi deb nomlangan. Yetti ma'no tarifi ko'p uchraydi. Bundan kelib chiqadiki og'irlik o'lchov dirhami $4,8 \times 7:10=3,36$ ga tenglashtirilgan⁴⁴.

XVI—XVIII asrlarda qisman Buxoro amirligida qo'llanilgan 4,8 gr misqol va 3,36 dirham nafaqat shahar ichkarisida, balki Shayboniylar, Ashtarxoniylar (joniylar) va Mang'itlar davlat chegaralari chekka hududida ham foydalanilgan. Bu narsa boshqa shahar va viloyatlarda o'z dirham va misqol bo'lmaganini anglatadi. Biroq 4,8 gr li misqol va 3,36 gr li dirhamlar mamlakat boylab umumiy qo'llanilgan. Bunga XVI—XVIII asrlardagi Buxorodagi ikki pul dirhamlari tanga o'lchov birligi asosida olinganili sabab bo'lgan. Keyinroq 4,8 gr li misqol va 3,36 gr li dirhamlar “mayda” deb nom olgan⁴⁵.

Xulosa qilib aytganda Buxoro xonligida Ashtarxoniylar so'lola hukumdorlari ham, tanga zarb etish boyicha Shayboniylar so'lolasidan

⁴² Е.А.Давидович Денежная реформа Шайбани-хана. Тадж. ССР. 1954

⁴³ Е.А.Давидович История монетного дела средней Азии XVII-XVIII в.в. ДУШАНБЕ-1964 294 бет

⁴⁴ Ўша жойда.

⁴⁵ Ўша жойда.

qolishmagan, ammo tangadagi kumush miqdori kamayib borganligi va oldingi tangalarga tenglashtirishga harakat qilganini ko'rishimiz mumkin.

1.3 Xonlikdagi tovar-pul munosabatlarning sulola hukmronligi davridagi uziga xos xususiyatla.

Tarixdan bizga ma'lumki XVI—XVIII asrlar davomida Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulola hukumronligi davrida Buxoro xonligida yuz bergan siyosiy vaziyatning bu qadar siyosiy murakkabligiga qaramay, mamlakat aholisining azaldan yashab kelayotgan o'troq etnik qatlamning mavqei juda katta bo'lgan. Qishloq aholisi asosan an'anaviy sug'orma dehqonchilik bilan, shahar aholisi esa hunarmandchilik va savdo sotiq bilan shug'ullangan. Adir va dashtga yaqin aholi punkitlari aholisi esa yaylovga haydab boqiladigan chorva podalari bilan kun kechirgan. Umuman, sug'orma va lalmikor dehqonchilik bilan shug'ullannuvchi turg'un aholi hayotida chorva yordamchi xo'jalik manbayi hisoblangan. Yordamchi chorva xo'jaligi nafaqat qishloq, balki shaharni har bir xonadoni uchun ham tovar xo'jaligi an'anasi hisoblangan. Chunki raiyat jamiyatda asosiy ishlab chiqaruvchi, moddiy boylik yaratuvchi, xazinaga soliq to'lovchi ijtimoiy tabaqa bo'lib, ularga do'kondorlar, hunarmandlar, o'rtahol dehqonlar va chorvadorlar, yollanib ishlaydigan aholi kirgan⁴⁶. Yo'qorida ko'rinib turganidek raiyat deb ataluvchi aholi qatlami hunarmandlar asosan tayyorlagan maxsulotini bozarlarga sotganlar yoki ayirboshlashganlar. Ulardan, ayniqsa temirchilik maxsulotlari (o'roq, omoch uchun tish, qoplama va boshqa qishloq xo'jalik tovarlari) va uy ruzg'or maxsulotlaridan ko'lolchilik ichki va tashqi bozarda xaridorbob bo'lgan.

Shayboniylar davlatida dehqonchilik uchun qulay bo'lgan hosildor yer maydonlari bepayon yaylovlar xon va uning yaqinlari, yirik harbiy-ma'muriy amaldorlarga qarashli bo'lgan. Bu davrda iqto, suyurg'ol va tanho kabi xususiy yer egaligi keng tarqalgan edi. Harbiy ma'muriy amaldorlarga yirik din peshvolariga davlat oldidagi xizmatlari uchun beriladigan bunday yerlarda asosan mehnat

⁴⁶ <http://www.arxiv.uz/joniylar.coins.narod.ru/slovar.htm>

qiladigan aholi kishilarning asosiy qismi qishloq aholisi bo'lib, ular ijaraga olingan yerda dehqonchilik qilib kun kechirgan. Manbalarda keltirilishicha, bu davrda bug'doyning 10 xil navi, arpa, jo'xori mosh, no'xot, makkajo'xori va sabzavot, poliz ekinlari, sholi, paxta yetishtirilgan⁴⁷. Shunga o'xshash qishloq xo'jalik maxsulotlarini, raiyat deb ataluvchi aholi qatlami bozarlarga tovar tariqasida sotishgan yoki bo'lmasa ayirboshlashganini bilishimiz mumkin. Undan tashqari chorvachilik ham yetakchi tarmoq sifatida katta ahamiyat kasb etgan. Yirik va mayda tuyoqli hayvonlarni boqish, yilqichilik, tuyachilik, ancha rivojlangan bo'lib, ularning go'sht maxsuloti bozarlarda sotilgan va terisi esa kosibchilikda xom ashiyo maxsuloti sifatida yetkazib berilgan. Oshlangan teridan kosiblar poyabzal tariqasida bozar rastalariga chiqarganlar. Xullas Shayboniylar sulola hukumronligi davrida tovar maxsulotlariga bo'lgan e'tibor alohida ahamiyat berilgan.

Buxoro xonligida savdogarlarga katta imtiyozlar berilgan, chunki savdo yo'li dengizlarga ko'chganligi "buyuk ipak yo'li"ning ahamiyati pasayib borishi edi. Bu xonlikning qushni davlatlar bilan savdo tijoratni amalga oshirishga ko'proq talab etgan. Chunonchi Rossiya bilan munosabatlari XVI asrning ikkinchi yarmidan rivojlana bordi. Abdullaxon II Rossiya bilan savdo aloqalarini yaxshilashga harakat qilar ekan, bu orqali o'z davlatining siyosiy ahvolini mustahkamlashga erishmoqchi edi. Chunki podsho Ivan Grozniy (1530-1584) davrida Rossiyaning mavqeyi kuchaya bordi. Ivan Grozniy davrida Qozon xonligi (1552 yil), Hojitarxon xonligi (1556), Volga boylari va g'arbiy Sibir hududlari Rossiya tomonidan bosib olingan edi. Bu hol Rossiyaga savdo yo'llarini nazorat qilish imkonini berdi⁴⁸.

Volga atrofidagi viloyatlarda savdo-sotiq ishlarini olib borish Buxoro xonligidan kelgan savdogarlar uchun ancha qulay edi. Ularga eng yaqin qo'shni mamlakat Rossiya bo'lib qolgandi. Bu hol ko'p jihatdan qozon tatarlari hamda boshqirdlar bilan din va til yaqinligi bilan izohlanar edi. Shuning uchun ham

⁴⁷ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.: <<Шарқ>> 2000 249- б

⁴⁸ Ўша жой

Abdullaxon II tomonidan 1557-1558- yillarda Moskvaga elchilar yuborilgan. Elchilar Astraxan orqali Moskvaga borib Ivan Grozniy huzurida bo'ladilar. Ular o'z xonlari nomidan savdogarlarning Volga bo'ylab erkin o'tishlariga ijozat so'raydilar. Qaytib kelgan elchilar Moskvadan juda ko'p o'q, dori, ov qushlari va matolar maxsulot, tovarlari bilan qaytganlar.

Ayni paytda, Rossiya ham Buxoro xonligi bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishdan manfaatdor edi. Bu manfaatdorlik avval Buxoroning Rossiya tovarlarini sotish uchun qulay bozorligida edi. Ikkinchidan esa Rossiya Buxoro xonligi orqali Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'lardi. Bunda birinchi navbatda, Hindistonga chiqish maqsadi hisobga olingan edi. 1555- yili Maskvada tashkil etilgan «Moskva savdo kompaniyasi» vakili Antoniy Jenkinson boshliq elchilar rus podshosining guvohnomasi bilan 1558- yili Buxoroga yuboriladi Elchi Antoniy Jenkinson Buxoro xoni Abdullaxon II tomonida qabul qilindi. Elchi xonlikning xalqaro va ichki savdo imkoniyatlari Rossiyadagi Moskva shahridan Buxoro shahrigacha 1558- yilgi sayohat nomli esdaliklarida bayon etadi⁴⁹. Bundan ma'lum bo'ladiki xonlik tovar maxsulotlarini xorij mamlakatlariga eksport qilgan va shu bilan birgalikda xonlik ichki bozorini yevropa davlatlarining maxsulot tovarlari bilan ta'minlab ham turishgan.

Shayboniylar davrida pul munosabatidagi yutuqlar haqida gapiriladigan bo'lsak, dastlab sulola hukumronlari tomonidan ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jumladan, 1507-1508, 1529-1530, 1583, 1589 yillarda pul islohatlari amalga oshirilgan. Bu davrda Shayboniylar nomi bilan yangi kumush va mis tangalar zarb etilgan bo'lib, oltin tangalar esa faqatgina Abdullaxon II davrida zarb etilgan⁵⁰. Ushbu manbaga asoslanadigan bo'lsak, Muhammad Shayboniixon, Ko'chkinchixon va Abdullaxon II pul islohati o'tkazilganligini bilishimiz mumkin.

⁴⁹ Озада Рахматуллаева, Авзар Сайдуллаев, Жамол Саломов, Ёрдамчи тарих фанлари Т.: 2010 41-бет.

⁵⁰ Ўша жой.

1507 yili Muhammad Shayboniyxon Hiroti egallagach shaharning jome masjidida pul islohati to'g'risida farmon bergan. Bunga ko'ra, mamlakatning hamma katta shaharlarida vazni bir xil - 5,2 gramm bo'lgan yangi kumush tangalar hamda mis chaqa pullar zarb qilinib, muomalaga chiqarildi. Bu islohot iqtisodiyotni tartibga solish va savdo-sotiqni jonlantirish maqsadida o'tkazilgan edi. Ayni paytda, bu islohot dehqonlarning soliq to'lash imkoniyatini oshirishga, davlat va xon mulkini ko'paytirishga imkon berdi. Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgan bu va boshqa tadbirlar, o'z mohiyatiga ko'ra, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga xizmat qilishi zarur edi⁵¹.

Muhammad Shayboniyxon vafotidan so'ng boshlangan o'zaro toj-u taxt kurashlari hamda Eron bosqinchilariga qarshi kurash mamlakat iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu hol, o'z navbatida, pulning qadrsizlanishiga olib kelgan. Natijada, oliy hukmdor Ko'chkinchixon 1515- yilda navbatdagi pul islohotini o'tkazishga majbur bo'lgan. 1527- yilga kelgandagina ahvolning bir maromga tushishiga erishilgan. Shayboniy Abdullaxon II o'tkazgan pul islohoti Buxoro xonligi tarixida muhim ahamiyatga ega voqea bo'lgan. U oltin pul zarb etishni yo'lga qoygan va uning tarkibiga qiymati past bo'lgan boshqa ma'danlar aralashtirmasligini qattiq nazorat ostiga olgan⁵². Bu pullar xonlikning butun hududida muomalaga kirgan. Bu hol, o'z navbatida, hokimiyatning yanada markazlashuviga, xazinaga katta daromad tushishiga olib keldi, savdo-sotiq yanada jonlandi.

Shayboniylar davrida tovar-pul munosabatlarining salbiy tomoni esa bu "buyuk ipak yo'lining" inqirozga uchrab borayotgani edi. Chunki chamasi XVI asrda dengiz yo'llarining kashf etilishi bo'lsa kerak. Sababi tranzit vazifani bajaruvchi karvon yo'llari xonlikdagi muhim nuqtada joylashgan shaharlarda savdo-sotiq tijoratlari barqororlashmayatganligi bilan izohlash mumkin va harbi siyosiy kurashlar natijasida ham tovar-pul va savdo munosabatlari rivojlanishiga to'sqinlik qilgan.

⁵¹ Холиков З. Жаҳонгирова Б. Сўнгги ўрта асрлар тангалари // Мозийдан садо, -№ 3. [39] - Б. 26-27. 2008.

⁵² Ўша жойда.

Buxoro xonligida Ashtarxoniylar hukumronligi davrida ham tovarga bo'lgan munosabat tinimsiz urushlar, qabila boshliqlari va xonlar o'rtasidagi ichki kurashlar mamlakat iqtisodiy hayotini, aholining moddiy turmushini ayanchli ahvolga tushirgan bo'lsada, lekin hunarmandchilik, savdo dehqonchilik va boshqa sohalar rivojlanishda to'xtab qolmagan. Jumladan, hunarmandchilik mahsulotlari asosan shaharlarda, qisman yirik qishloqlarda yetishtirilar edi. Hunarmandchilikning to'qimachilik tarmog'ida ip yigirish, gazlamalar tayyorlash, tayyor kiyim tikish, gilam to'qish, kashtachilik ancha rivojlangan⁵³. Hunarmandchilikning kulolchilik tarmog'i ham rivoj topadi, O'lkada sog' tuproq manbalarining ko'pligi sopol va chinni idishlar, ko'za, kosa va boshqa tayyor kulolchilik maxsulotlari tayyorlashga imkoniyat bergan. Metal va yog'ochga ishlov berish orqali uy-ro'zg'or buyumlari tayyorlash, binolar qurilishida yog'och va ganchkorligi kabi hunarmandchiligi tarmog'i ham ancha o'sdi. Sug'oriladigan yerlarda bug'doy, arpa, jo'xori, loviya, mosh, sholi, paxta, savzavot va poliz ekinlari ekilgan. Dasht va tog'oldi lalmi yerlarda ham boshqoli ekinlar, kunjut, tarvuz, qovun ekilib, dehqonchilik qilingan. Chorvachilik ham qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan. Mehnatkash aholi chorva mollarini boqib, go'sht, sut mahsulotlari yetishtirgan. Ammo katta yaylovlar xon, saroy amaldorlari, dinpeshvolari, qabila boshliqlariga tegishli bo'lib, ming-minglab qo'ylar, podalar, yilqilar, tuyalar boqilardi. Jun, teri va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirilar, ichki va tashqi bozorda sotilar edi. Ho'kiz va otlarlardan yer haydashda va savdo sotiq ishlarida, tovar maxsulotlarini tashishda tranzid vazifani ham bajarishda keng foydalanilar edi⁵⁴. Undan tashqari tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha Samarqand va Qo'qon qog'ozlari "hatma", "haririy", "sultoniy", "nuhar" o'rta asr sharq hattodlar orasida g'oyat qadrli bo'lib, uning bir qismi qushni o'lkalarda tayyor maxsulot sifatida chiqarilar edi. Biroq XVII asrlarga kelib har xil urushlar, qo'zg'olonlar, hududdagi notinchliklar hunarmandlarning tinchligini buzgani va ularga nisbatan tinch bo'lgan boshqa shaharlarga borib, o'z hunarlarini davom, ettirganlar. Xususan XVIII-XIX asrlarda Qo'qonda ham qog'oz

⁵³ <http://www.arxiv.uz/joniylar/coins.html>.

⁵⁴ Murtazayeva R.H. O'zbekiston tarixi. T.: <<Yangi asr avlodi>> 2003 45 6

ishlab chiqarila boshlagan. Mashhur Samarqand qog'ozi o'rniga kelgan Qo'qon qog'ozi dastlab sifati sezilarli darajada past bo'lsa-da, ancha arzon bo'lgan. Bu esa O'rta Osiyo bozorlarida Qo'qon qog'ozining maxsulotining xaridorgir bo'lishini ta'minlagan⁵⁵.

Qo'qon qog'ozi uchun xom ashiyo sifatida asosan eski gazlamalar, paxta chiqindilari ishlatilgan. Yillar o'tishi bilan uning sifati ko'rsatgichi yaxshilanib borgan va hattodlar orasida keng qullanila boshlagan. Aytish joizki, qog'ozgar ajdodlarimiz tomonidan o'z davrida yaratilgan qog'oz namunalari bugungi kunda zamonaviy fan texnika yutuqlari bilan qurollangan qog'oz ishlab chiqarish fabrikalarida ishlab chiqarilgan yo'qori sifatli qog'ozlardan ba'zi bir ko'rsatgichlardan ustun turardi. Shunday ekan hunarmand ustalarning yillab mashaqqatli mehnati evaziga yaratilgan har bir davr qog'oz namunalarining sifat xususiyatlarini o'rganish, o'zaro taqqoslash, o'sha davrdagi yutuq kamchiliklarini ko'rsatib berish vatanimizda qog'oz hunarmandchiligi maxsulot tovarlarini tarixini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu sohada 1932 yildan beri yetarli tajribaga ega bo'lgan "o'zbek qog'ozi" ochiq turdagi Aksiyodorlik Birlashmasi ilmiy tekshirish laboratoriyasi yetakchi xodimlari bilan hamkorlikda Qo'qon qog'ozining mexanik xususiyatlari o'rganilganda, aniqlangan ko'rsatgichlar zamonaviy standart ko'rsatgichlari bilan yonma-yon qiyoslab chiqilgan⁵⁶. (2-ilova)

Tahlil natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'z davrida xonlik hunarmandlar qog'oz ishlab chiqarish sohasida o'ziga xos yutuqlarga erishgan. Bundan tashqari xalq amaliy san'atining eng ommabob va keng tarqalgan hunarmandchilik turlaridan yana biri do'ppi bo'lib, u erkaklar, ayollar va bolalar milliy keyimining ajralmas qismi hisoblanadi. Do'ppini eslatuvchi bosh kiyimlarning qadim o'tmishda ham mavjud bo'lganini tasdiqlovchi dalillarni arxiologik yodgorliklar, devoriy yozuvlar, terrakota haykalchalar, XV-XVI asrlarga oid sharq miniatyuralarida ko'rish mumkin. Panjikent tasviriy san'atida ham bir nechta bosh kiyim tasvirlari saqlanib qolgan⁵⁷.

Mavoraunnahr (XV-XVII asrlarda) va Samarqandda (XVI asrning birinchi yarmi) miniatyuralarida ayolarning turli-tuman bosh kiyimlari uchraydi. U yoki bu

⁵⁵ Нозим.Х. Абдугани.В. Борно.М. "Қогоз ишлаб чиқариш тарихидан" Мозийдан садо, № 4 [44] Б. 17-18. 2009.

⁵⁶ Нозим.Х. Абдугани.В. Борно.М. "Қогоз ишлаб чиқариш тарихидан" Мозийдан садо, № 4 [44] Б. 17-18. 2009.

⁵⁷ Юлдуз ГАЙБУЛЛАЕВА. "Дуппилар тарихидан" Мозийдан садо, №3 Б. 93-94 2010.

mintaqada do'ppilarning muayyan tipi yaratilishiga faqat tabiiy shart-sharoitlar emas balki shu mintaqada vujudga kelgan ichki bozor va xo'jalik madaniyatning umumiy darajasi ham ta'sir ko'rsatgan.

Xonlikda xususan Chust, Andijon, Marg'ilon, Qo'qon shaharlarida tayyorlangan do'ppilar kelib chiqishiga ko'ra dastlabki do'ppilar hisoblangan. Tepa qismi chorsi bo'lgan bu do'ppilar taxlanganda uchburchak shaklga kelgan. Bu do'ppilarga ular yaratilgan shaharlarning nomini qo'shib aytilgan; "tus (Chust) do'ppi", "qo'qon (Qo'qon) nusxa", "andijon (Andijon) nusxa", va h.k. Samarqandda do'ppi "qalpoq", "qalopoq" deb atalgan, boshqa joylarda esa (Toshkent, Farg'ona vodiysi, Xorazmda) "do'ppi" atamasi keng tarqalgan. Mahalliy do'ppilarning 5 ta asosiy guruhi farqlangan. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro va Xorazm har bir tipining ayrim turlari aniq mahalliy farqlari sezilib turgan⁵⁸.

Umuman olganda quydagi manbalarga asoslanadigan bo'lsak, Buxoro xonligida hunarmandchilik tarmoqlari, qog'oz ishlab chiqarish, do'ppi tikish, gilam to'qish va boshqa sohalari rivojlangan bo'lib, hunarmandlar tayyorlagan maxsulotlarini tayyor tovar tariqasida ichki bozorlarga qisman tashqi bozarlarda xaridorgir bo'lganini bilishimiz mumkin.

Shayboniylar va Ashtarxoniylar (Joniylar) davrida tovar-pul munosabatlarning taraqqiyoti va ahvoli ko'plab topilgan tangalar xazinasi, shuningdek, yozma manbalardagi ma'lumotlarni to'plash bilan o'rganiladi.

XVI—XVII asrlarning pul ishlab chiqarish umumiy qonunga ko'ra oltinning o'rnini kumush pulning qanday zarb etilishiga bog'liq edi. Bizga ma'lumki, shayboniylar hukumdorlardan Muhammad Shayboniyxon va Abdullaxon II davrida oltin tangalar zarb etilgan. Joniylar davrida oltin tangalar zarb etilgani ma'lum emas, ular haqida biron yozma manbada ma'lumot uchramaydi. Jinkinsonning ta'kidlashicha, bu davrda savdoda oltin tangalar uchramagan. Umuman, XVI—XVII asrlarda oltin tanga asosiy to'lov vositasi o'rnini bosmagan⁵⁹. XVII asrda ahvol tez-tez o'zgarib turgan va XVII asrning oxirlaridan boshlab Joniylar oltin tanga zarb eta boshlagan. Ma'lumki, davlat

⁵⁸ Юлдуз ГАЙБУЛЛАЕВА. "Дуппилар тарихидан" Мозийдан садо, №3 Б. 93-94 2010.

⁵⁹ Холиқов З. Жаҳонгирова Б. Сўнгги ўрта асрлар тангалари // Мозийдан садо, №3. [39] - Б. 26. 2008.

tepasiga kelgan sulola yoki shaxs tomonidan pul zarb qilinishi, uning mazkur hududdagi hukumronligini ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida qobul qilinadi. Yozma manbalarda shu narsa ma'lumki Joniylar hukumronligining XVIII asr boshlarida pul islohatini o'tgazganini ko'rsatadi.

Chunonchi Abulg'ozixon hijriy 1199 yildan boshlab kumushni zarb etish texnikasi va undan oldingi Joniylar tangasidan farqlanib turishi uchun islohatlar amalga oshirilgan. Demak Abulg'ozixonning islohatining asosi quydagicha bo'lgan. Yangi og'irlik standartlariga o'tish (og'irlik dirhami yoki misqolning 7/10 ulushi) yangi tangalar uchun ma'lum bir o'lchamlar belgilanishi; tashqi ko'rinishi yaxshilash uchun zarb qilish texnikasida o'zgartirish; yozuvlarning mazmuni va hajmi o'zgarishini; yo'qori probaga o'tish; zarb qilishning yangi holatida edi⁶⁰. Abulg'ozixon pul islohoti o'tkazgan bo'lsada lekin o'z nomi bilan bog'liq bo'lgan kumush tangalar na'molum. Uning davrida oltin tangalar doimiy zarb qilingan. Kumushning aylanishi uchun qanday tangalar xizmat qilganligini quydagi manba orqali bilishimiz mumkin.

XVIII asrning yarmida O'ratepadan olingan manbalar o'sha asrning oxirgi choragiga qadar eski Joniylar tangasi muomilada bo'lganini anglatadi. Abulg'ozixon islohatiga qadar bu yerda faqat uning avlodlari tangalari muomilada bo'lganligini aniq dalililar bilan isbotlanadi. Bu haqida juda qiziq ma'lumotlar **مجمع الارقام** majmu ir-raqam "raqamlar yig'ini" asarida⁶¹ keltiriladi.

Undagi aformetik hisoblar, ularning amaliy qo'llanilishi, soliq yig'ish, maydonlarni hisoblash va boshqalar keltirilgan. Bu kitob Buxoro ma'muriy boshqarmasining ma'sul shaxslari va ma'muriyat uchun o'quv qo'llanma bo'lgan. Maskur asarda shuningdek, eski tangalardagi mis va kumushning farqi ham ko'rsatib o'tilgan. Bunda quydagi misollar keltirilgan; agar tanga "o'ndan ikki yarim" bo'lsa ularni hisoblash uchun ikki yarimlik tangalarga ko'paytirib, o'nga bo'lish kerak⁶² mazkur matndan ko'rinib turibdiki, mis va kumushdan quyilgan tangalar o'sha davrda "eski" deb hisoblangan bo'lsada baribir uchrab turgan bo'lib, ularning qayta hisoblashda

⁶⁰ Е.А.Давидович История монетного дела средней азии XVII-XVIII в.в. ДУШАНБЕ-1964 166-бет

⁶¹ Ўша жойда.

⁶² Ўша жойда.

farqi mazkur asarda kiritilishi zarurat bo'lgan. Undan tashqari keltirilgan misol 25% li tangalar ham muomilada bo'lganini anglatadi. Ko'rinib turganidek, bu yerda XVIII asr o'rtalarida past probali tangalar nazarda tutilgan. Bu tangalar Subxonqulixon tangalari ekanini ko'rsatadi.

O'sha paytlari bir probali tangalar ham uchragan. Bu narsa o'sha asarning boshqa joylarda keltirilgan bo'lib, bu joyda katta miqdordagi tanga probasini o'rganish uchun o'n tangaga teng bo'lgan metalni olib, tozalash kerakligini ham ko'rsatib o'tilgan. Asarda ikki bora tozalashdan so'ng uch tanga vaznga teng miqdorda kumush chiqarish kerak deb takidlangan⁶³. Bu yerda 3/10 probali tangalar to'g'risida gap ketmoqda.

Filipp Efremov (1774-1782y.y.) biroz boshqacharoq ma'lumot keltiradi. U Buxoro tangasida yarmi misdan iborat ekanini ko'rsatadi⁶⁴. F. Efremov bu yerda probalarini yaxshi bo'lganini takidlaydi. U o'zgalar ma'lumotlariga emas, balki o'zi ko'rgan ma'lumotlariga tayanib ish ko'rgan. Chunki u uzoq vaqt Buxoroda bo'lgan. Undan tashqari u mutloqa aniq (faktlarni) raqamlarni keltirib o'tadi. Bir oltin tanga, shundan 30 ta "yarim mis" tanga to'g'ri keladi deb takidlaydi⁶⁵. Bundan tashqari quydagi uchta 1695 y 1:13,5, 1741y 1:14, 1795 y 1:13,65 tayangan holda XVIII asrda Buxoro xonligida kumushning oltinga qiymati barqoror bo'lgan deb xulosa qilish mumkin. Agar Efremov ma'lumotiga ko'ra bir oltin tangaga 30 kumush tanga to'g'ri kelgan bo'lsa, unda kumush tangalarda kumush miqdori 45-47% bo'lgan⁶⁶ bo'lsa. Bunday foiz Efremov xulosasiga to'liq mos kelib probasi ma'lum, aniq muomilada bo'lganligini bilishimiz mumkin.

XVII asrning ikkinchi yarmidagi tangalar o'z sifatiga ko'ra yaxshi bo'lsada, ular XVII asrdayoq muomiladan chiqib qolgan. Ularning orasida birgina Efremov ma'lumotiga mos keluvchi tangalar turi bizga ma'lum. Bu tur aynan Abulfayzxonning 45,62% kumushli 4-tip tangalaridir. XVIII asrning so'nggi choragida Subxonqulixon hukumronlikgida uchragan bo'lsa, bular Abulfayz tangalari muomilada bo'lishida dovom etayotganini bildiradi. Shunisi aniqki XVIII asrning II yarmida Filipp

⁶³Е.А.Давидович История монетного дела средней Азии XVII-XVIII в.в. ДУШАНБЕ-1964 165- бет.

⁶⁴Уша жой

⁶⁵Уша жой.

⁶⁶Уша жой.

Efremov Buxoroda bo'lib, o'sha paytlar turli probali tangalar muomilada bo'lganligini ko'rsatadi. Misol uchun 3/10, va 2,5/10 lik tangalari haqida ma'lumotlar "Majmua ul-Arkam" asarida keltirilgan o'sha paytlar 30% kumushli tangalari uchramagan bo'lmasa kerak, Abulfayzxonning yo'qori probali va bizga na'molum boshqa yarimtalik tangalar⁶⁷ ma'lumatlar uchraydi. Abulg'ozixon tangalarining o'rtacha og'irligi 3,1 gr bo'lib tanga yaxshi saqlangan. Bundan avvalgi Joniylarning ishqalanishga uchragan tangalari ham hatto bu qadar yengil bo'lmagan. Abulg'ozixongacha bo'lgan Joniylar tangalarining ko'rsatgich og'irligi 4,8 gr ga teng bo'lgan. Abulg'ozixon tangalarining og'irligi qanday bo'lganini ko'rsatish uchun, jovob topishga Mang'itlarning kumush tangalari yordam beradi deb takidlaydi E.A. Davidovich. Unda Mang'itlarning kumush tangalari uchun 7/10 belgilangan bo'lgan. Yo'ridik hujjatlarda ularning vazni ba'zan وزن سبعة tarzida ta'riflangan. Misqolda 4,8 gr og'irlik dirxami 3,36 gr tenglashtiriladi. Unda 3,36 bu Mang'itlarning kumush tangasining ko'rsatgich vazni bo'lib, Mang'itlar tangasining o'rtacha vazni bo'lib, Abulg'ozixon tangasining o'rtacha vazniga to'liq mos kelagan⁶⁸. Bundan kelib chiqadiki Abulg'ozixon tangasining ko'rsatish vazni – dirhami, ya'ni 3,36 gr bo'lganini bilishimiz mumkin.

Keyinchalik 1784—1785 yillar davomida amirlikda pul islohati o'tkazilib uning sifatini yaxshilash bilan birga, Ashtarxoniylar (1601—1756) nomi bilan bog'liq bo'lgan pullarni muomiladan chiqarib tashlashga harakat qilingan.

Yo'qorida ko'rinib turganidek Ashtarxoniylar (Joniylar) davrida oltin tangalar zarb etilgani ma'lum emas, ular haqida biror yozma manbada ma'lumot uchramaydi, biroq kumushning past probali tangalari bozorlarda muomilada bo'lgani haqida o'sha vaqtdagi elchilarning, sayyohlarning, savdogarlarning esdaliklarda ma'lumotlar uchraydi. Hozirgi kunda xonlikdagi zarb qilingan oltin, kumush, mis pullar va ularning qoliplari dunyoni ko'pgina mamlakatlari muzeylarida saqlanmoqda. Rossiya jug'rofiya jamiyati vakili sharqshunos **olim P.I.Pex va A.P. Kun** raxbarligida ilmiy jixatdan tashkil qilindi. **Vasilevskiy** yordamida Peterburgdagi ermitajda tashkil qilingan numizmatika va boshqa fondlar O'rta Osiyodan.

⁶⁷Е.А.Давидович История монетного дела средней Азии XVII-XVIII в.в. ДУШАНБЕ-1964 165- бет.

⁶⁸Уша жой.

jumladan Xiva, Qo`qon va Buxoro amirligidan kelgan oltin, kumush, mis, atlas va boshqa pullar hisobiga boyigan. 1883 yili ermitajga junatilgan buyumlar ichida 1168 ta qadimiy oltin-kumush tangalar edi. Bundan tashqari o`ljalar ichida tanga zarb qiladigan qoliplar, oltin va kumushdan ishlangan. 25 ta xon muxri, 200 dan ortik qadimiy tangalar mavjud edi⁶⁹.

Shunday qilib o`zbek davlatchiligida salkam 250 yillik tarixga ega bo`lgan Buxoro xonligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan Buxoro xonligida hukm surgan Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida tovar-pul muomilasi haqida gap ketar ekan, unda Shayboniylar so`lolasi hukumronlik yillarida tanga-pul muomilasining ahamiyati haqida yozma manbalarda qayt etilgan bo`lsada, ammo Ashtarxoniylar davri biror bir manbalarda ma`lumot uchramaydi, lekin sayyohlar, elchilar, savdagarlarning estaliklarida ma`lumotlar saqlanib qolgan. Demak Ashtarxoniylar davlatchiligini o`rganish muhim vazifadir.

⁶⁹ <http://www.arxiv.uz/russiancoins.narod.ru/slovar.htm>

II-Bob: BUXORO XONLIGIDA SAVDO MUNOSABATLARINING YO'LGA QO'YILISHI.

2.1. Ichki savdoda xonlar tomonidan yo'ritilgan siyosat.

Shayboniylar va Ashtarxoniylar davlatida ham xon xazinasiga tushadigan asosiy boyliklardan bu, soliq va jarimalardan tashqari savdo-sotiqlardan katta foyda olingan. Bu haqda ko'plab ma'lumotlar tarixiy asarlar, yozma manbalar, estaliklar va arxiv hujjatlarda yetarlicha ma'lumotlar topiladi.

Salkam 250 yillik tarixga ega Buxoro xonligida ham savdo-sotiq ishlari boyicha bir qancha tadbirlar amalga oshirilgan. Shayboniixon, Ko'chkinchixon, Abu Said, Ubaydullaxon hukumronlik yillarida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Ammo qo'sh hokimiyatchilik yillarida Abdulazizxon; (Buxoroda), Abdullatif; (Samarqandda) xonlar o'rtasidagi o'zora urushlar mamlakatning iqtisodiy-siyosiy jihatdan muayyan o'sib borishiga katta to'siq bo'lishiga qaramay, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xorazm, Balx kabi shaharlar ahvoliga keskin ravishda salbiy ta'sir etmagan. O'rta Osiyo shaharlari savdo-hunarmandchilik va madaniyat markazlari sifatida o'z faoliyatini davom ettirgan. Bu joylarda ayniqsa, ip va ipak gazlamalar ishlab chiqarish keng quloq yoyib, ular mamlakatning ichki va tashqi savdoda salmoqli o'rin egallagan. Bular; bo'z, alacha, xom surp, zandoni, mata, doka, atlas, kimxob, banoras, beqasam va adras kabi turli rangdagi gazlamalar edi.

Abdullaxon II o'zining 40 yillik hukumdorligi davrida karvon yo'llarini qayta jonlantirish, karvonsaroylar qurish va ta'mirlashga ahamiyat berdi. Bundan tashqari ilk bor o'rta osiyoda zamonaviy 1577- yilda Buxoroda yirik usti berk savdo rastasi, Abdullaxon timi qurildi⁷⁰. Demak Abdullaxon II hukumronlik yillarida muayyan ishlar olib borganini bilishimiz mumkin. Buxoro xonligi shaharlarida va shuningdek atrof joylarda ishlab chiqarish maxsulotlarining ma'lum turlari ixtisoslashtirilgan alohida mahalla, qishloqlar vujudga kelgan edi. Masalan Buxoroning shimolida joylashgan Zandona degan qishloqda ip gazlamaning sifatli bir turini ishlab chiqarish bundan ming yil ilgariyoq

⁷⁰ Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.: <<Шарқ>> 2000 248-249 б

ixtisoslashtirilgan. Bu to'g'risida X asrning birinchi yarmida yashagan Narshaxiy bunday yozgan edi; -- <<Qishloqda katta bozor va machit bor ... Bu yerdan zandonachi (zandoni) nomli ip gazlama olib ketiladi. Bu nom shu qishloqda gazlama ishlab chiqarganligi uchun berilgan. Shu gazlama Buxoroning ko'p qishloqlarida ishlab chiqarilib, bular ham "zandonachi" deb yo'rtilgan...>>⁷¹.

Zandoni ip gazlamasi, Narshaxiyning so'zicha, Iroq, Hindiston, Eron, Karmana va boshqa mamlakatlarga olib ketilib, juda mashhur bo'lgan⁷². XVI-XVIII asrlarda va bundan keyingi davrda zandoni ip gazlamasi Rasiyaga ko'p miqdorda keltirilgan. Bu yerda u "Zendei" nomi bilan mashhur bo'lgan⁷³. Demak O'rta Osiyo hunarmandchilik sanoatida ipakchilik muhim rol oynab, ular orasida Farg'ona vodiysi va Buxoroda to'qiladigan ipak gazlamalar savdoning muhim buyumi hisoblanganligi bilish mumkin. Undan tashqari Buxoro xonligida gazlama ishlab chiqarish haqida qisqa bo'lsada, Filipp Efremovning bergan ma'lumoti ham ahamiyatlidir. Uning ma'lumotlariga qaraganda, bu hududda ipak ko'p bo'lgan, undan kumush va tilla naqshli yo'l-yo'l kimxob, atlas, duxoba, mayda gul solingan gazlamalar to'qilgan. Bu yerda juda ko'p paxta yetishtirilgan. Undan chodir, bo'z, doka, dag'al ip gazlama, olacha, fata (shaffof oq ro'mol), xom surp va boshqa gazlamalar to'qilgan⁷⁴ligi haqida ma'lumotni beradi. Garchi bu so'zlar XVIII asrga tegishli bo'lsada, biroq ko'rsatilgan gazlamalar O'rta Osiyo shaharlarida bundan ancha davrlar ilgari to'qilar edi. Bu tovar—maxsulotlar ichki va tashqi savdoda juda xaridorgir bo'lganini bilish mumkin.

Hokimiyatga Ashtarxoniylar (Joniylar) so'lolasi kelgandan so'ng ham muayyan ishlar amalga oshirilgan. Bu sohada Buxoro xonlarida ayniqsa Imomqulixon (1611—1642) faoliyati xarakterlidir. Imomqulixon savdo-hunarmandchilik ahllarining Astraxandan Qozongacha va bu yerdan o'tib, Sibirgacha bo'lgan ulkan tertoriya bilan aloqasini kuchaytirishga alohida e'tibor

⁷¹ Абу Бакр Наршахий. Бухоро тарихи. Форс тилидан А.РАСУЛЕВ таржимаси. 11-бет.

⁷² Ўша жойда.

⁷³ Зияев Х. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI—XIX асрлар). Тошкент, 1962, 46—бет.

⁷⁴ Ўша жойда.

bergan. Chunonchi, Imomqulixon hukumronlik yillari vaqtida Buxoro xonligidan rus davlatiga to'qqiz marotaba elchi yo'borilgan. Elchilarning yettitasi bevosita Astraxan, ikkitasi esa Sibir orqali jo'natilgan⁷⁵. Elchilarning bazilari haqida ma'lumot uchraydi.

Ulardan 1613- yilda Navruzxo'ja boshchiligida, 300 kishidan iborat savdo karvonlari bilan. 1622-yilda Chobak Balikov boshchilik 19 kishidan iborat xizmatchi va savdogarlar bilan Sibir orqali. 1633 yilda Hoji Otaqul nomli savdagar hamrohlari bilan Astraxan orqali. 1640- yilda Xazziyan boshchiligida o'z elchilarini Sibir orqali jo'natgan. 1642- yilda Xo'ja Ibrohim nomli elchi Balx hokimi nomidan Astraxan orqali 16 hamrohi bilan Maskva yetib borgan⁷⁶. Bu ma'lumotga asoslanib xulosaga kelinganda, Buxoro savdogarlari esa xorijga asosan paxta, ipak va tayyor maxsulotlarni eksport vazifasini bajarganligi, shuningdek xorij mamlakatlaridan esa xonlikning ichki bozari uchun talabgir maxsulotlari bilan taminlab turligini ma'lum. **(3-ilova)**

Ashtarxoniylar so'lolasi hukumdori Nazrmuhammadxonning (1642-1645) qisqa hukumronligi yillarida esa savdo-sotiq ishlari boyicha biror bir ma'lumatlar uchramaydi, ammo Abdulazizxon (1645-1681) uzoq hukumronligi yillarida kam bo'lsada ma'lumat uchraydi. 1669- yilda rus elchilari Onyushka Shaposhnikov va Nazir Nodirov Buxoroga jo'natilgan. Bu elchilar Buxoroda ikki oy bo'lishgan, bu vaqt ular Abdulazizxon huzurida bo'lgan. Elchilar izzat-hurmat bilan yashagan va Abdulazizxonning mulla Farrux nomli javob elchisi bilan qaytganlar⁷⁷. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, rus podshosi o'zining o'sha elchilari orqali Abdulazizxonga yorliq yuborib, Sibir orqali o'zora savdo-sotiq munosabatlarini davom etirish taklif etgan.

Buxoro elchisi mulla Farrux o'z hamrohlari bilan 1670 yilning 17 oktabrda Tabolskka kelgan bu yerdan o'n kishidan iborat soqchi va ko'zatuvchilar bilan 24 nayabrda Maskvaga yo'borilgan. Mulla Farrux 16 kishidan iborat hamrohlari bilan

⁷⁵Зияев Х. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI—XIX асрлар). Тошкент, 1962, 46—бет

⁷⁶М.Йўлдошев. XVI-XVII асрларда Бухоро билан Россия ўртасида элчилик муносабатлари. 52 бет.

⁷⁷Зияев Х. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI—XIX асрлар). Тошкент, 1962, 60—бет

1671 yilning 27 yanvarida Maskvaga yetib keladi⁷⁸. Mulla Farruxning asosiy vazifalaridan biri, har ikki davlatlar o'rtasida elchilik munosabatlarda bo'lish va savdogarlarining o'z davlatlari uchun zarur mollarni sotib olishlari uchun to'sqinlik qilmaslik edi.

Buxoro xonligi va xonlikdagi hukmdor doiralar xonlik savdogarlarining manfaatini ko'zlab rus davlatiga bir qancha elchilar yo'borilgan. Abdulazizxon hukumronlik yillaridan yana biri 1674 yili Hoji Farruxni* Sibirga elchi qilib yuborilgan bo'lib. U 14 hamrohi bilan Tobolskka va bu yerdan Maskvaga boradi⁷⁹.

Hoji Farruxning asosiy vazifasi har ikki mamlakat o'rtasida o'zora savdo elchilik munosabatlarni yo'lga quyish bo'lgan. Buxoro xonligi bilan aloqadan rus davlati qanchalik manfaatdor bo'lsa, Sibir va umuman Rossiya bilan aloqa qilish Buxoro xonligi ham shunchalik manfaatdor bo'lganini bilish mumkin.

Hoji Farrux Buxoro xonligining rus davlatiga bilan nisbatan munosabatni sharhlab o'tar ekan, Abdulazizxon har ikki tamonning savdo kishilarining to'xtovsiz qatnashlarini istaydilar deb, o'qtirib o'zi yani Hoji Farrux hozircha yengil-yelpi savg'alar – 9 ta Buxoro o'q yoyi va 9 ta bars terisi bilan kelganligi, vataniga qaytib borgach, xon u bilan rus podshosiga, 1 ta fil, 2 ta oq qo'tos, 18 ta yo'rg'a ot, 2 ta tulpor, 2 ta chipar to'ti, 2 ta qoplon, 2 ta arab bolasi, 2 ta silovsin, ipak va ip gazlamalar, sovuq qurollar, qimmatli toshlar va boshqa sovg'alarni yo'borajagini, shuningdek Abdilazizxon hamma rus asirlarini o'z vatanlariga qaytarishni vada qilgani, hatto, rus hukumati Hindistonga elchi va savdogarlar yuborgan taqdirda, ularning yo'lidagi havfsizligini taminlashni o'z zimmasiga olishini aytadi⁸⁰. XVII asrlarda hududiy jihatdan chegaradosh bo'lgan Buxoro va Rossiya davlati o'rtasida olib borilgan savdo ikki davlatning o'zaro diplomatik

⁷⁸Ўша жой.

*Hoji Farrux asli kelib chiqishi rus bo'lib, otasi Dorogobuj degan joyda yashagan. Bu yerdan esa u, rus hukumati tomonidan Astraxanga surgun qilingan. Hoji Farrux Astraxanda to'g'ilgan va 8 yoshida otasi bilan qolmoqlarga asir tushgan. So'ngra bular qolmoq xoni tomonidan Buxoro xoniga "sovg'a" sifatida yuborilgan. Buxoroda ular Nazr Muhammadxon ixtiyorida qilib yurganlar. Abdulazizxon vaqtida Hoji Farrux to'pchioshi mansabiga ko'tarilgan bo'lib, uning qo'l ostida 500 mahalliy kishi, 500 ruslardan tashkel etilgan xon askarlariga boshchilik qilgan. (Зияев Х. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI—XIX асрлар). Тошкент, 1962, 66—бет)

⁷⁹Ўша жой.

⁸⁰Ўша жой.

munosabatlarda muhim o'rin tutgan. Buxoro xonligi Rassiya bilan asosan qo'riq-yarog', porox, po'lat va moynasiga xaridorgir bo'lgan va import qilib olgan. Yo'llarda esa tranzit vazifasini ot, tuya eshak va boshqa hayvonlar bajarib kelgan. Bu haqda Buxoroga tashrif buyurgan ingliz savdogari Antoni Jenkinsonning "...bu mamlakatda hamma odamlar faqat karvonlar bilan sayoxatga chiqadi..."⁸¹ degan ma'lumoti tasdiqlaydi. Demak elchilik munosabatlari har ikki mamlakatni bir-biri bilan savdo tijorat aloqalarini samarali davom ettirishga yordam bergan. Natijada Sibir va Astiraxan orqali savdo ancha kuchayib, samarali natijalar berganligini bilish mumkin. Buxoro xonligidan Sibirga olib ketilgan tovar-maxsulotlarining turlari va miqdori ayrim qimmatli ma'lumotlar (3-ildoda) keltirilgan. Ushbu ma'lumotda ko'rinib turibdiki, asosan ipak, paxta tovar maxsulotlaridir. Undan tashqari savdo har ikki tomon ishlab chiqarish kuchlarini o'stirishga ma'lum rol oynagan. Buxoro xonligi shaharlaridan Sibirga gazlamalarining ko'plab keltirib turilishi u yerda savdo-hunarmandchilikning sanoatining o'sishiga hamda paxta maydonlarining ma'lum darajada kengayishiga ta'sir etgan. Sibirga keltirilgan Buxoro tovar maxsulotlarining narxi⁸². (4 ilova)

Demak yo'qori jadvallarda keltirib o'tilganidek Buxoro xonlik bozorlaridan asosan ip gazlama tovar maxsulotlari tashqi bozorlariga chiqarilganini va ichki bozorlarga esa muyna, qurol aslahalar sotib olinganligini bilishimiz mumkin. Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukmronligi yillari davrida xolqora savdo dengiz yo'llarida olib borilgan bo'lsa-da, lekin buyuk ipak yo'lini jonlantirishga qaratilgan bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. Undan tashqari Buxoro hududida bir xil standartga ega og'irlik o'lchav birliklari ham bo'lgan. XVIII asr boshlarida Buxoroda yaratilgan "مجمع الأرقام" – "raqamlar to'plami" asaridir. Bu asarda to'rtta afirmatik ifoda va ulardan soliq yig'ish, yer maydonlarini hisoblash chog'ida foydalanish keltirib o'tilgan. Asarning eng asosiy qimmati shundaki

⁸¹ Gulchehra Sultonova. Buxoro va Yorkent xonliklari o'rtasidagi savdo aloqalari. // Мозийдан садо, -№ 4. [39] - Б. 22-23. 2005.

⁸² Зияев Х. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI—XIX асрлар). Тошкент, 1962, 93—бет

* 1 to'p—o'n gaz

**1 oltin—15 tiyin

*** 1dengi—1,2 tiyin

barcha masalalar aniq bir mahalliy shart-sharoitlarda qo'llash uchun keltirilgan bo'lib unda Buxoroning ijtimoiy-iqtisodiy hayotni ifoda etuvchi ma'lumotlar keltirilgan. Unda og'irlik o'lchamlari bir necha bor tilga olingan.

Unda qonuniy bir man og'irligi, qirq istar ekanligini keltirilib o'tilgan. Har bir istar to'rt yarim misqolga teng. Demak bir man, bir yuz sakson misqolga teng, bir sa -- sakkiz ratlga, bir ratl esa – yigirma istarga, bir misqol – olti danikga, bir danik esa – o'n olti javga teng deb takidlangan⁸³. Keyingi sahifalarda misqolning quyidagi birliklarda bo'lishi bilan keltiriladi. Mazkur holatda, maskur baytga ko'ra bir misqolga 96 jav ekanini takidlash joiz, shunday qilib keltirilib barchalarida ikki xil turli man, ratl, sa va istar namoyon bo'ladi.

Buxoro xonligida eng ko'p tarqalgan og'irlik birliklardan biri bu Bog'dod ratli bo'lgan. Har xil manbalarda ratlning hajmi ikki xil; 128 dirham va 130 dirhamga teng deb ko'rsatilgan. Buxoroning 4,5 misqoli, 20 istar ratli mazkur Bog'dod ratliga to'liq mos kelgan⁸⁴. Bunda Bog'dod ratli dirham asosida emas, balki misqollarda o'lchami ham ma'lum bo'ladi. Bunda ko'rinadiki Buxoro xonligi hududida bozor va shahar hududlarida savdo- sotiq ishlari boyicha sa, ratl, man, istar kabi o'lchav birliklari bo'lgan. Bunda Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukumronlik yillarida Bog'dod ratlining kelib chiqqan, misqoldan iborat birlik og'irlik va hajm o'lchav birligi sifatida qo'llanilgan. "Raqamlar to'plami" asariga binoan asosan Buxoroda o'lchash misqollarda belgilangan.

Maskur birliklarni gramlarga tenglashtirish uchun eng avvola ularning asosini tashkel etuvchi misqol o'lchavini bilish lozim. Buni bilish uchun "raqamlar to'plami" asarida kerakli ma'lumotlar berib o'tilgan. Bunda sakkiz pudli botman 4,8 gramli kichik misqollarda belgilangan va "raqamlar to'plamida" asarida turli misqollar to'g'risida gap boradi. Bu narsa har ikki holatlardalarda ham bir xil misqol nazarda tutiladi. Demak 90 misqolli ratl (90x4,8) 432 gram ga teng, 180 misqolli man esa (180x4,8) 864 gram ga⁸⁵ teng ekanligi ko'rsatilgan.

⁸³ Е.А.Давидович История монетного дела средней азии XVII-XVIII в.в. ДУШАНБЕ-1964 303—304 -бет

⁸⁴ Е.А.Давидович История монетного дела средней азии XVII-XVIII в.в. ДУШАНБЕ-1964 165- бет.

⁸⁵ Ўша жой.

Ushbu xulosa quydagi ifoda orqali o'z tasqig'ini topadi. Maskur ratl va manga mos misqollar to'g'risida qo'lyozmada ular 6 danikka teng, bir danik esa 16 javga tenglashtirilgan. Demak ushbu misqollar 96 javga teng, 4,8 gramli misqolga 0,05 gramli javga teng. Biroq ayrim olimlar bir misqol 96 javga emas, 100 javga, yani $(0,05 \times 100)$ 5 gram ga teng deb talkidlaydi. Yo'qorida isbotlangani kabi ikki xil misqol mavjud bo'lgan

va biri ikkinchisiga 24;25 nisbatda 4,8 va 5 gr ga teng bo'lgan⁸⁶.(5-ilova)

Yo'qorida ko'rsatilib o'tilgan og'irlik o'lchavlari Buxoro xonligida hududi bozorlarda muomilada bo'lganligi haqida muallifi na'molum "raqamlar to'plami" keng bayon etilgan. Shunday ekan Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukumronlik yillarida savdo—sotiq, tijorat, soliq va tovar ayirboshlashda standart og'irlik o'lchavlaridan keng foydalanganligi bilish mumkin.

1794-yilda Buxoroda bo'lgan T. S. Burnashev o'g'irlik o'lchavlari to'g'risida juda qiziq ma'lumotlar keltirilgan. Askar jangchi pul moashidan tashqari har yili 7 botmondan bo'g'doy (56 pud) olganini takidlab o'tib, shu o'rinda Burnashev ma'lumotida besh o'lchov birligi ham keltirilgan.

1. 8 rus pudiga yaqin o'lcham botmon.
2. 56 rus funtiga teng pud.
3. 1/10 pudga teng, yani 5 rus funtiga teng chiriq.
4. chiriqning qandaydir qismi bo'lgan funt.
5. o'sha funtning 1/96 qismli qandaydir birlik⁸⁷.

T. S. Burnashevning ma'lumotida tub aholi asosan botmon va pud og'irlik o'lchav birligidan foydalanilgan. Garchi mahalliy aholi bozorlarda savdo—sotiqda ishlarida, tovar maxsulotlarini ayirboshlashda o'z zamonasining o'ziga xos og'irlik o'lchav birliklari bo'lgan.

Shunday qilib Buxoro xonligida ichki savdoda, yirik savdo markazlari shahar va qishloqlarda, eng asosiysi o'g'irlik o'lchav birliklari bo'lib undan keng

⁸⁶ Ўша жой.

⁸⁷ Е.А.Давидович История монетного дела средней азии XVII-XVIII в.в. ДУШАНБЕ-1964 165- бет.

faydalanishgan. Bu esa ichki savdo—sotiq ishlarining jonlanishiga sabab bo'lganligini bilishimiz darkor.

2.2 Xonlikda tashqi savdo aloqalari.

Tarixdan bizga ma'lumki u yoki bu davlat har bir vaqtda rivojlanish davrida tashqi diplomatik aloqalar va savdo aloqalarisiz rivojlana olmagan. Bir so'z bilan aytganda har qanday davlat ham o'z qobig'iga o'ralib taraqqiy etmagan.

Shu o'rinda bunga istisno ravishda Buxoro xonligida Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulola hukumdorlari tomonidan bir qancha savdo va diplomatik munosabatlari amalga oshirilgan. Movoraunnahrda Shayboniylar hokimiyat tepasiga kelgan yillarda va ular hukumronlik yillarda qo'shni mamlakatlar bilan elchilik, savdo tijorat ishlarini olib borganlar. Xonlikning tashqi savdoni tashkil etishda elchilarning xizmati katta bo'lgan, chunki diplomatik aloqalarning yaqinligi savdo tijoratining rivojiga ijobiy ta'sir o'tkazgan.

Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolasining hukumdor vakillari ham bir qancha qo'shni davlatlar bilan tashqi savdoni tashkil etish tadbirlarini amalga oshirgan. Chunonchi Rossiya, Hindiston, Yorkent xonligi, qisman Usmonli turklar bilan savdo sotiq ishlarini olib borgan. Shu o'rinda xonlik dorgohida bir necha lavozimlar ham tashkil etilgan bo'lib, ular elchilik vazifalarini va elchilarni qabul qilish xizmatlari yuklatilgan.

Ulardan biri “*naqibdir*” dargohdagi xondan keyingi muhim davlat amaldori bo'lib, rasmiy qabul marosimlarida oliy hukumdorning chap tomonida birinchi bo'lib joy olishi naqibning dargohdagi tutgan yuksak maqomidan dalolatdir. “Naqibning asosiy vazifasi, mas'ulyatli elchilik vazifasi yuklatilgan. Shu bilan birga harbiy yurishlarni uyushtirish, davom ettirish, dushman harbiy imkoniyatlarini o'rganish yumushlarini ham bajargan. Naqiblarning muhim jihatlaridan biri shundaki, bu lavozimga asosan payg'ambar avlodlari hisoblanmish sayyidlar xonadoniga mansub kishilar tayinlangan”⁸⁸. Demak, bundan ko'rinadiki

⁸⁸ Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.: <<Шарқ>> 2000 244-бет

xon dargohdagi bu kabi ma'suliyatli vazifa va ishlarni xonning eng ishonchli kishilarini tayinlaganlar.

Davlat ahamiyatiga molik mansablardan yana biri “*dodgoh*”dir.

“Dargohga tushgan arzlarni qabul qilish, javobini berish hamda mamlakatdagi ijtimoiy adolat tartiblariga rioya qilish kabi yumush bilan birga, u elchilarni qabul qilish, elchilik yumushlarni tashkil etish va hotto shaxsan elchi sifatida boshqa mamlakatlarga borib kelish kabi tadbirlarni amalga oshirgan”⁸⁹. Bu lavozim mansabida ham ma'lum bo'ladiki xonlikdagi diplomatik va savdo sotiqni tashkil etish kabi nozik masalalarni bajargan.

Dargohdagi yana bir muhim lavozimlardan biri bu “*shig'ovul*”dir. “Bu mansabdagi kishilar ham chet el elchilarini qabul qilish boyicha maxsus xizmat boshlig'i bo'lgan”⁹⁰.

Demak xonlikning Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulola hukumronligi yillarida davlat dargohidagi bu lavozimlar tashqi elchilik munosabatlarni tashkil etish va xorij elchilarini qabul qilish kabi tadbirlarni bajarib kelgan. Bundan xulosa kelinadiki yo'qoridagi kabi lavozimdagi shaxslarning xizmatlari xonlikdagi tashqi savdoni tashkil etilishi va qo'shni davlatlar bilan elchilik munosabatlari yaxshi yo'lga qoyilishida muhim ahamiyat kasb etganligidir.

Endi Buxoro xonligining tashqi savdo tijorat va diplomatik aloqalari haqida so'zlasak. Bunda Buxoro xonligiga yaqin bo'lgan hududlardan biri, bu Usmonlilar davlatidir. Usmonlilar davlati bilan Buxoro xonligi davlati o'rtasida din birligi va qisman til yaqinligi hamdir, bu yaqinlik ikki davlatning yaqinlashuviga ijobiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmasdi.

Biroq Usmonlilar davlati bilan Shayboniylar davlati o'rtasidagi diplomatik va savdo-tijorat munosabatlari haqidagi ma'lumot kam o'rganilgan mavzulardan biridir, ammo Azamat Ziyoning “O'zbek davlatchilik tarixi” kitobida kam bo'lsada ma'lumot uchraydi. Manbada ta'kidlanishicha, Muhammad Shayboniixon bilan Usmonli turk sultoni Boyazid II o'rtasida Eron safaviylariga qarshi kurash

⁸⁹ Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.: <<Шарқ>> 2000 244-бет

⁹⁰ Ўша жой.

to'g'risida shartnoma tuzilgan. 1515-yilda turk sultoni Sulton Salim huzuriga shayboniylar elchisi borgan. Sulton Salimning elchisi Muhammadbek esa o'sha yili Buxoro xonligiga sultonning maktubini olib kelagan. Sulton o'z maktubida Ubaydullaxonni «qizil boshlilar»ga qarshi kurashga chaqirgan⁹¹. Bunda Shayboniylar davlati tomonidan Usmonli turklar davlatiga elchi bo'lib kim borganligi, qancha kishi hamrohlik qilganligi aksincha Usmonli turklar tomonidan Shayboniylar davlatiga kim elchi bo'lib kelganligi haqida ma'lumot keltirilmagan. Nima bo'lganda ham usmoniylar va shayboniylarning safaviylarga qarshi kurashida din bir niqob edi, xolos. Aslida esa bu g'arbiy Eron, Kavkaz va Xuroson uchun olib borilayotgan siyosiy kurashning natijasi edi.

Usmonli turk davlati bilan aloqalar Shayboniylardan keyin ham davom etgan. Shayboniylar davlatini markazlashgan davlatga aylantirgan Abdullaxon II davrida ham elchilik munosabatlari qisman yo'lga qoyilgan. Unda quydagi ma'lumotlarda ham o'z tasdig'ini topadi.

Binobarin Usmoniylar sultoni Navro'z Ahmadxonga yordam uchun harbiy kuch ham jo'natgan. Navro'z Ahmadxonning Toshkentdagi qarorgohida 300 nafar turk askari doimiy xizmatda bo'lgan, qurol-aslaha bilan ham ta'minlab turgan. Turk askarlari Navro'z Ahmadxon tarafidan turib Nasaf yonida Abdullaxon II ga qarshi janglarda qatnashganlar. Binobarin, usmonlilar sultonligi safaviylarga qarshi kurashda shayboniylar kuchidan foydalanibgina qolmay, Buxoro xonligida o'z siyosiy ta'sirini kuchaytirish maqsadida ham bu ichki kurashlarda faol qatnashganligidir⁹². Bu ma'lumotda ham shuni bilish mumkinki, bunda ayniqsa Usmonlilar sultonligi Movoraunnahrda markazlashgan davlat vujudga kelishini hohlamagan, binobarin bu vaqtga kelib markazlashgan Buxoro xonligiga Movoraunnahr va Xurosonni Abdullaxon II o'z davlati tarkibiga birlashtirgandi. Shu bilan birga o'z siyosiy ta'sirini qo'shni davlatlarga o'tkazayotgan edi.

Yana Buxoro xonligiga qo'shni bo'lgan davlat bu, Boburiylar davlatidir.

⁹¹ Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.: <<Шарқ>> 2000 255-бет

⁹² Ўша жой.

Boburiylar davlati Buxoro xonligining janubiy qo'shni davlati bo'lib, bu ikki davlat o'rtasida siyosiy, iqtisodiy munosabatlar qizg'in dovom etib kelgan. Ikki davlat o'rtasidagi siyosiy iqtisodiy diplomatik munosabatlar asosan XVI-asrning 70 yillaridan boshlab muntazam ravishda davom etib kelgan.

Bu haqida Nizomiddinovning XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo va Hindiston munosabatlari kitobida diplomatik va iqtisodiy munosabatlar haqida keng mulohaza yoritilgan. Ikki davlat o'rtasida ilk elchilik munosabatlari bir necha marta bo'lgan. Demak ulardan "1572 yili Hindistonga Abdullaxonning birinchi elchisi Xo'ja Oltamish yuboriladi. Keyingi ikkinchi elchilik ham Abdullaxon II tomonidan yuborilib. Bu safar Abdiraxm boshchiligidagi elchilar yo'boriladi. Keyingi elchilar esa 1579 yili Abdullaxon saroyiga sunniy mahzabdagi Mirza Po'lat boshchiligida hind elchilari yuborilgan. Uzoq yillardan so'ng Akbar Buxoroga elchi yuborishga qaror qiladi. 1597 yili 17 mayda Hindistondan Buxoroga Xo'ja Ashraf Naqshbandiy boshliq elchilar yo'lga chiqadi"⁹³. Demak XVI –asrning ikkinchi yarmidan XVII-asrning boshlarigacha, Shayboniylar so'lola hukumronlik yillari yani Abdullaxon II davrida Buxoro xonligi bilan Boburiylar davlati o'rtasida olib borilgan elchilik munosabatlar muntazam ravishda davom etib turgan. Bunda har ikki davlat iqtisodiy va siyosiy munosabatlarining yo'lga qoyilishida manfaatdar bo'lganligini bilish mumkin.

Keyingi elchiliklar esa Ashtarxoniylar so'lolasi hukumronlik davri bilan bog'liqdir. Ashtarxoniylar hukumronlik qilgan davrda ham Buxoro xonligi va Boburiylar davlati o'rtasida qizg'in diplomatik aloqalar mavjud bo'lgan. Ulardan "Hindistonga 1632 yili Vaqqos Hoji, 1633 yili Tarbiyatxon boshchiligida hind elchilari Balxgacha, uzoq vaqtdan so'ng Buxoro xonligidan Xo'ja Ahmad al-Husayniy 1661-yili 27 nayabr, undan so'ng esa Kuchakbek 1663yili hind shohi qobulida bo'lganlar. Buxoro xonligiga esa 1665 yili iyulda Mustafaxon Hofi elchiligi qabul qilingan. 1669 yili 11may Hindistonga Buxorodan Rustambiy boshchilik elchilar kelgan, unga javoban 1670 yili may oyi Hindistondan

⁹³ И.Низомиддинов. XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё—Ҳиндистон муносабатлари. Т.: Фан. 1966 23-71 бетлар.

Yakkatozxon elchiligi, so'ng 1671 yili Buxorodan Muhammad Sharif elchiligi Hindistonga, 1685 yili Buxoroga Zabardastxon, 1688-1689 yili Nazarbiy Hindistonga, 1714-1715 yili Sultonbiy elchiligi Hindistonga⁹⁴ kelgan. Bu kabi oliy darajadagi elchilik munosabatlar esa, birinchi navbatda siyosiy, iqtisodiy savdo munosabatlarning manfaatlarini ko'zda tutganligini bilish mumkin.

Endi Buxoro xonligi bilan Boburiylar davlati iqtisodiy (savdo) munosabatlar haqida so'z yuritsak. Unda asosan tovar maxsulotlarni Hindistondan dorivorlar, har xil boyoqlar, choy va Buxoro xonligidan esa quruq va ho'l mevalar asosiy maxsulotlar hisoblanganligini keltirib o'tish joiz. Olimlarning aniqlashicha Buxoro xonligi va Boburiylar davlati o'rtasidagi savdo munosabatlar esa asosan 3 xil asosiy shakli mavjud ekanligini e'tirof etiladi.

1. Xususiy savdo.
2. Xonlikning maxsus vakillari vositachiligida olib boriladigan savdo.
3. Podshohlar o'rtasidagi bir-birlariga to'hfa va hadiyalar yuborish yo'li bilan mol ayirboshlash.

Xususiy savdogarlar, asosan xalq extiyoji uchun zarur bo'lgan tovar maxsulotlari bilan savdo qilganlar. Bunda quydagi ma'lumotlarda ham tasdig'ini topadi. Ular XVI-XVIII asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrda, Hindistondan Buxoro bozorlariga turli xil matolari (jomavar, chire, gujorat,) lak va boyoqlar keltirilgan, Buxorodan Hindistonga ho'l va quruq mevalar, ot, tuya, ipak matolari, sukno, qunduz terisi, har xil chinnilar, zig'irpoyadan to'qilgan rus matosi va boshqalar keltirilgan⁹⁵.

Demak xususiy savdogarlar xalq orasida yurganligi bois raiyat xalqining extiyoji uchun zarur bo'lgan tovar maxsulotlari bilan savdo qilishganligini tasavur qilish mumkin. Lekin u yoki bu davlat ularning havfsizligi taminlamagan.

Yo'qorida savdoning ikkinchi shakli esa birinchisidan tubdan farq qilgan. Bu xildagi savdogarlar maxsus farmon bilan boshqa bir o'lkalarga

⁹⁴ И. Низомиддинов. XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё—Ҳиндистон муносабатлари. Т.: Фан. 1966 23-71 бетлар.

⁹⁵ Ўша жой..

yuborilganligidir. Ularga asosan xonlar, juyboriy shayxlar, saroy amaldorlari va mansabdor shaxslarga yuklatilgan. Demak quydagi asarda keltirilishicha bularga asosan saroy extiyojlari uchun turli xil quruq va ho'l mevalar, shuningdek matolar (kimxob, zarbob,) nodir buyumlar, qo'nduz po'stinlari, morj tishi, chinni asboblari, qipchoq otlari, tez yurar tuyalar, ov qushlari va boshqalar buyum maxsulotlar bilan savdo qilishganini⁹⁶ keltirib o'tadi. Unda bu shaklda savdo esa saroy amaldorlari uchun savdo qilganligi ma'lum bo'ladi. Bundan tashqari bu shakldagi savdogarlarga esa, keng imtiyozlar berilgan hamdir.

Uchunchi shakldagi savdoda esa xon, podshoh, yoki amirlar tomonidan uyushtirilgan. Bu shakldagi savdo sovg'a solom, hadya to'hfalar yuborish yo'li bilan olib borilgan, bu esa Buxoro xonligi va Boburiylar davlati o'rtasidagi iqtisodiy savdo munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etganligini bilish mumkin.

Ulardan Hindistonga kelgan Imomqulixon elchisi Abdirahimxo'ja turli savg'a-salomlar bilan birga Johongirga bir yirik la'l to'hfa qilgan. Johongir ham Abdirahimxo'jaga 40 ming rupiya pul va har biri 1500, 1000, va 500 misqol og'irlikdagi uchta oltin "kavkabi toli" hadya etgan⁹⁷. Demak yo'qorida keltirilgan to'hfalarda asosan qimmatboho, la'l, olmos bilan almashinib turganligini bilish mumkin.

Yana bir elchilik munosabatlarda Abdilazizxon tomonidan hadiya qilib yuborgan qimmatli 40 ming rupiyalik la'l evaziga, Avrangzeb elchisi Mustofaxon Abdilazizxon saroyiga bir lakx va ellik ming rupiya qimmatiga barobar oltin suvi yuritilgan egar jabduq, jamdar quroli, qimmatboho qilich, qalqon, o'qdon, bir fil va turli matolar keltirgan⁹⁸.

Endigi savdoda esa asosan qurollar, har xil matolar va xon uchun zarur mol-tovor maxsulotlar bilan savdo qilishganini bilish mumkin.

⁹⁶ И. Низомиддинов. XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё—Ҳиндистон муносабатлари. Т.: Фан. 1966 18-бет.

⁹⁷ Ўша жой.

⁹⁸ Ўша жой.

Xulosa o'rnida Buxoro xonligi va Hindiston (Boburiylar sulolasi hukumronligi davrida) o'rtasida olib borilgan elchilik munosabatlar va iqtisodiy munosabatlar bir-biriga chambarchas holda olib borganligini bilish mumkin.

Buxoro xonligining boshqa qushni mamlakatlar bilan iqtisodiy (savdo) va siyosiy (elchilik) munosabatlarda bo'lganligiga tarix guvohdir. Bu mamlakatlardan biri Rossiyadir. Buxoro xonligining Rossiya bilan munosabatlari XVI-asrning ikkinchi yarmidan rivojlana bordi. Buxoro xonligi oliy hukumdori Abdullaxon II va Rossiya podshosi Ivan Grozniy bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarini yo'lga quyilgan. Ivan Grozniy davrida Rossiyaning mavqeyi kuchaygan davrni o'z ichiga olgan edi. Chunki Qozon xonligi, Hojitarxon xonligi, Volga boylari va g'arbiy Sibir hududlari Rossiya tomonidan bosib olingan edi. Bu hol Buxoro xonligining Rossiya orqali yevropa davlatlari bilan Rossiya esa Buxoro xonligi orqali Hindiston bilan savdo qilish imkoni ham vujudga kelgan edi.

Manbalarda takidlanishicha Abdullaxon II tomonidan 1557-1558- yillarda Moskvaga elchilar yuborilgan. Elchilar Astraxan orqali Moskvaga borib Ivan Grozniy huzurida bo'laganlar. Ular o'z xonlari nomidan savdogarlarning Volga boylab erkin o'tishlariga ijozat so'raydilar. Qaytib kelgan elchilar Moskvadan juda ko'p o'qdori, ov qushlari va matolar bilan qaytganlar⁹⁹.

Demak Buxoro xonligi XVI-asrning ikkinchi yarmida davom etganidek elchilik va savdo munosabatlari butun XVII-asrda ham davom etgan. XVII asrda Ashtarxoniylar (Joniylar) hukumronligi davridagi xon, Imomqulixonning foaliyati xarakterlidir.

Chunonchi, Imomqulixon vaqtida Buxoro xonligidan rus davlatiga to'qqiz marotaba elchilar yuborilgan. Shularning yettitasi bevosita, Astraxan, qolgan ikkitasi esa Sibir orqali yuborilgan¹⁰⁰. Demak Rossiya davlati bilan Ashtarxoniylar sulola hukumdorlari tomonidan ham elchilik va savdo munosabatlar izchillik bilan davom etgan.

⁹⁹ Зияев Х. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI—XIX асрлар). Тошкент, 1962, 46—бет.

¹⁰⁰ Ўша жой, 55—71бетлар.

Ma'lumot o'rnida 1613-yili Imomqulixon rus davlatiga Navruzxo'ja boshchiligida elchilar yuboriladi. Bu elchi 300 kishidan iborat savdo karvonlari bilan Qozon, Samara va boshqa joylarda mahalliy hokimiyat tomonidan qobul qilinadi. Ular shuningdek sovut, shunqor, moyna va "xon extiyoji" uchun zarur bo'lgan rus tovor maxsulotlarini sotib olish va xon mollari rus yerlarida bojsiz sotishga ijozat berilishiga rus podshosidan so'ragan va bunga ma'lum miqdorda imtiyozlar berilgan¹⁰¹.

Yo'qoridagi ma'lumotlardan ham ma'lum bo'ladiki har ikki davlat o'rtasida bojsiz savdoda Buxoro xonligi ham va Rossiya davlati ham juda manfaatdor bo'lgan. Chunki Buxoro xonligining asosan ipak, paxta kabi maxsulotlariga, Rossiyaning sovut, shunqor, moyna va qurol aslahalariga har ikki davlatning ichki bozorda talab bo'lganligini bilish mumkin bo'ladi. Keyingi elchilik munosabatlarda ham asosan yuqoridagi ko'rsatilgan tovor maxsulotlar bilan almashinilganligi ko'rsatiladi.

Keyingi elchilar haqida to'xtalsak, Buxorodan, Chobak Valikov 1622 yilda, Hoji Otaqul 1633 yilda, Xazziyan (Kozziyan) 1640 yilda, Xo'ja Ibrohim 1642 yilda, Mulla Farrux 1670 yilda, kabi elchilar Rossiya mamlakatiga yuborilad¹⁰². Bu kabi elchilik munosabat-larning yo'lga quyilishi Buxoro xonligi va Rossiya savdosini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilishida muhim rol oynaganini tushinish mumkin.

Shunday qilib Buxoro xonligi qo'shni davlatlar bilan, umuman olganda tashqi savdoda va elchilik munosabatlarda o'tgan asrlardagiga nisbatan samaraliroq bo'lganligini xulosa qilishimiz mumkindir.

¹⁰¹Зияев Х. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI—XIX асрлар). Тошкент, 1962, 46—бет.

¹⁰²Ўша жой.

2.3 Mavzu materiallari bo'yicha ta'lim tizimi uchun dars ishlanmasi.

1-dars.

Darsni olib borish texnologiyasi.

O'quv fanining nomi: O'zbekiston tarixi.

Sinf: 8 sinf.

O'quvchilarning soni: 30 tagacha.

Darsni olib borish usuli: aralash dars.

Mavzuning nomi: Buxoro xonligida tovar-pul munosabatlari.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga, xalqimizning o'ziga xos iqtisodiy turmush tarzi va Buxoro xonligining tovar-pul munosabatlari haqida malakalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: Xalqimizga munosib farzand qilib tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi ta'lim: Guruhlarda ishlash orqali o'z bilim darajasi ko'nikmasini rivojlantirish.

O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi.

Metod: Nima uchun. Aqliy hujum.

Shakl: Yakka tartibda yoki guruhlarda ishlash.

Vosita: Mavzuga oid darslik, atama, tushuncha, sanalar yozilgan kartochkalar.

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism. 5 daqiqa.

O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, darsga jalb qilish, sinfda darsga tayorlash, dunyoda va O'zbekistonda yuz bergan muhim yangiliklardan qisqacha xabarlar berish.

II.Uy vazifasini takrorlash. 5 daqiqa.

«O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob qilinadi. (savol-javob taxminan qo'ydagicha bo'lishi mumkin.)

1. Buxoro xonligi qanday vujudga kelgan?
2. Abdullaxon II ning o'zbek davlatchiligida tutgan o'rni.
3. O'zbek atamasining ma'no jihatdan kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?

III.Yangi dars mavzusini ro'yobga chiqarish ustida ishlash. 20 daqiqa.

O'qituvchi «Aqliy hujum» orqali ma'ruza qiladi.

Reja.

1. Xonlikda hunarmandchilik maxsulotlari.
2. Xonlikda chorvachilik va dehqonchilik maxsulotlari.
3. Buxoro xonligida pul islohatlari.

1.Masala; Hunarmandchilik mahsulotlari asosan shaharlarda, qisman yirik qishloqlarda yetishtirilar edi. Hunarmandchilikning **to'qimachilik** tarmog'ida ip yigirish, gazlamalar tayyorlash, tayyor kiyimlar tikish, gilam to'qish, kashtachilik ancha rivojlandi.

Hunarmandchilikning kulolchilik tarmog'i ham rivoj topadi. O'lkada sog' tuproq manbalarining ko'pligi sopol va chinni idishlar, ko'za, kosa va boshqa tayyor kulolchilik mahsulotlari tayyorlashga! imkoniyatberardi.

Metall va yog'ochga ishlov berish orqali uy-ro'zg'or buyumlari tayyorlash, binolar qurilishida **yog'och va ganch** «**yinakorligi** kabi hunarmandchilik tarmog'i ham ancha o'sdi. Buxoro va Samarqandda yuqori sifatli yozuv qog'ozi ishlab chiqarish, tog'li hududlardan nodir metallar, kaliy qazib olish ham yo'lga qo'yilgan. Buxorolik hunarmandlar 200 ga yaqin kasb turlari bilan shug'ullangan.

Xonlik davrida davlat xazinasini boyitishning yagona usuli **soliq** deb hisoblangan. Shu boisdan soliqlar turi va miqdori ko'paytirilgan. Asosiy soliq to'lovchi raiyat — dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar, savdogarlar bo'lib, ulardan *xiroj, zakot, ixrojt, bojva* boshqa soliqlar undirilgan. Soliqlardan tashqari aholi kanallar qazish, ariqlarni tozalash, qurilish va boshqa ishlarga majburan jalb etilardi.

2.Masala; Chorvachilik ham qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan. Mehnatkash aholi chorva mollarini boqib, go'sht, sut mahsulotlari yetishtirgan. Ammo katta yaylovlar xon, saroy amaldorlari, dinpeshvolari, qabila boshliqlarigategishli bo'lib, ming-minglab qo'ylar, podalar, yilqilar, tuyalar boqilardi. Jun, teri va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirilar, ichki va tashqi bozorda sotilar edi. Ho'kizlardan yer haydashda, omoch va mola tortishda keng foydalanilar edi.

Tinimsiz urashlar, qabila boshliqlari va amirlar o'rtasidagi ichki kurashlar mamlakat iqtisodiy hayotini, aholining moddiy turmushini ayanchli ahvolga tushirdi. Sug'oriladigan yerlarda bug'doy, arpa, jo'xori, loviya, mosh, sholi, paxta, savzavot va poliz ekinlari ekilgan. Dasht va tog'oldi lalmi yerlarda ham boshoqli ekinlar, kunjut, tarvuz, qovun ekilib, dehqonchilik qilingan.


Dehqonchilik mamlakat iqtisodining butunlay inqirozga tushib qolishidan saqlab turgan asosiy omil bo'lib, aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan. Imomqulixon davrida, 1614—1615- yillarda Qashqadaryodan Qarshi cho'liga kanal qazilgan. 1633—1634- yillarda Qo'shqo'rg'onda kanal qazilib, vohalarga suv chiqarilgan. Biroq ashtarxoniylar davrida suv inshootlari qurilishiga yetarli e'tibor berilmadi.

3.Masala; Uchunchidan, 1507- yilda pul islohoti o'tkazildi. Bunga ko'ra, mamlakatning hamma katta shaharlarida vazni bir xil — 5,2 gramm bo'lgan yangi kumush tangalar hamda mis chaqa pullar zarb qilinib, muomalaga chiqarildi. Bu islohot iqtisodiyotni tartibga solish va savdo-sotiqni jonlantirish maqsadida o'ltiazilgan edi. Ayni payt-da, bu islohot dehqonlarning soliq to'lash imkoniyatini oshirishga, davlat va xon mulkini ko'paytirishga imkon berdi.

Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgan bu va boshqa tadbirlar, o'z mohiyatiga ko'ra, markaziy hokimiyatni mustahkam-lashga xizmat qilishi zarur edi.

IV. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 10 daqiqa.

O'rganilgan mavzuni mustahkamlash suhbat jarayonida quyidagi savollar asosida o'tkaziladi: ("Nima uchun" pedagogik texnologiyasi orqali amalga oshiriladi.)



1. Hunarmandchilik tovar-maxsulotlari nimalardan iborat?
2. Uy ro'zg'or buyumlari asosan nimalardan yasaladi?
3. Chorvachilik maxsulotlari sirasini bilasizmi?
4. Teri maxsulotlari nima uchun foydalanishgan?
5. Pul muomilasi qanday bo'lgan?
6. Xonlik tangasi bilan hozirgi tangalarning nima farqi bor deb o'ylaysiz?
ularga misollar keltiring.
7. Dehqonchilik maxsulotlarining asosini asosan nima tashkil etgan bo'lish
mumkin.

Kartochkalar.



V. Darsning yakunlarini chiqarish. 3 daqiqa.

O'quvchilar a'lo va na'munali boholar bilan baholanadilar.

VI.Uyga vazifa. 2 daqiqa.

Uyga vazifada 27-32 betlarni hamda 48-52 betlarni o'qib kelish.

Darsni olib borish texnologiyasi.

O'quv fanining nomi: O'zbekiston tarixi.

Sinf: 8 sinf.

O'quvchilarning soni: 30 tagacha.

Dars berish usuli: aralash dars.

Mavzuning nomi: Buxoro xonligida sovda munosabatlari.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga, Buxoro xonligida ichki va tashqi sovda sotiq ishlariga doir bilimlarni berish.

Tarbiyaviy maqsad: Xalqimizga munosib farzand qilib tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi ta'lim: Guruhlarda ishlash orqali o'z bilim darajasi va ko'nikmasini rivojlantirish.

O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi.

Metod: savol-javob va aqliy hujum orqali.

Shakl: yakka tartibda yoki guruhda ishlash.

Vosita: Mavzuga oid bo'lgan xarita va rasmlar, darslik, atamalar.

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism. 5 daqiqa.

O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, darsga jalb qilish, sinfda ishchi muhitini yaratish, dunyoda va O'zbekistonda yuz bergan muhim yangiliklardan qisqacha xabarlar berish.

II.Uy vazifasini takrorlash. 5 daqiqa.

«O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob qilinadi. (savol-javob taxminan qo'ydagicha bo'lishi mumkin.)

1. Hunarmandchilik tovar-maxsulotlari nimalardan iborat?

2. Xonlik tangasi bilan hozirgi tangalarning nima farqi bor deb o'ylaysiz? ularga misollar keltiring.
3. Dehqonchilik maxsulotlarining asosini asosan nima tashkil etgan bo'lish mumkin.

III.Yangi dars mavzusini ro'yobga chiqarish ustida ishlash. 20 daqiqa.

O'qituvchi «Aqliy hujum» pedogogik texnologiyasi orqali ma'ruza qilinadi.

1. Buxoro va Boburiylar munoabati.
2. Buxoro va Usmonli turk davlati munosabati.
3. Buxoro va Eron munosabatlari.
4. Buxoro va Rossiya munosabatlari.

1.Masala; Movarounnahrda hukmronlik qilayotgan qilishga intilganlar. Shu sababdan 1572- yiliAbdullaxon II Akbarshoh huzuriga o'zining elchilarini yubordi. Buxorolik elchilar o'z hukmdorining sovg'a-salomlari va mak-tubini olib borganlar. Bir qancha vaqtdan so'ng yana javob sovg'a-salomlari va maktubini olib, o'z vatanlariga qaytganlar. Abdullaxon o'z maktubida ikki davlat o'rtasida do'stlik munosabatlarini mustah kamlash istagini bayon qilgan edi. Bundan ko'zlangan maqsad boshqa davlatlar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan hujum xavfiga j qarshi ittifoq tuzish edi. 1577- yili Abdullaxon II Hindistonga ikkinchi marta elchi yuborgan. Bu elchi almashishdan siyosiy maqsad \ ko'zlangan edi. Abdullaxon II to'g'ridan to'g'ri Eronni o'zaro taqsim-labolishnitaklifqildi. Lekin Akbarshohbungarozibo'lmadi. Chunkij bu davrda Hindistonning shimolidagi mustaqil knyazliklar — Sing va Kashmirni bosib olish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan edi. Akbarshoh Sing va Kashmirni bosib olib, shayboniylar davlatining janubiy chegaralariga yaqinlashdi. Shunday sharoitda, 1584-yilij Badaxshon Abdullaxon II tomonidan egallandi.

Abdullaxon II endi Akbarshoh huzuriga 1585- yilda uchinchi marta elchi yubordi. Elchi Buxoro xoni yuborgan maktubni Akbarshohga topshirdi.

Maktubda Abdullaxon Badaxshonning fath etilish sabablarini tushuntirishga harakat qilgan edi. Abdullaxonning fikricha, musulmonlarning muqaddas shaharlari bo'lgan Makka va Madinaga boradigan yo'l Badaxshon orqali o'tardi. Bu shaharni g'ayridinlardan tozalash maqsadida u Badaxshonni egallaganini bildiradi.

1586-yildning 23- avgustida Akbarshoh Abdullaxonning elchi-lariga qo'shib o'zining elchisini Buxoroga yuboradi. Akbarshoh o'z¹ maktubida Abdullaxonga Turkiya Eronning bir qismini bosib olganligidan tashvishlanayotganligini, Buxoro va Hindiston birga-likda Eronga yordam ko'rsatishi zarurligini ma'lum qilgan edi. Akbarshohning asl maqsadi Balx va Badaxshonni, imkoni bo'lsa, Xurosonni ham o'ziga bo'ysundirish edi. Shu tufayli, Abdullaxon II bunday ittifoqqa rozi bo'lmaydi. Bu paytda Eron hukmdori shoh $\mu\text{bb}\text{o}\text{z}$ I Eronni birlashtirishga, mustahkamlab olishga erishgan edi. Ana shunday sharoitda Badaxshonda Abdullaxonga qarshi isyon ko'tarildi. Buxoroda isyonda Akbarshohning qo'li bor degan gumon paydo bo'ladi. Badaxshon hukmdori Abdullaxon II ning o'g'li Abdulmo'min Akbarshohga maktub yo'llab, undan boshpana beril-gan badaxshonlik isyonchilarni Buxoroga qaytarib yuborishini, qizini o'ziga nikohlab berishni, hatto Hindistonning bir qismini tortiq qilishini talab qildi. Natijada ikki davlat o'rtasidagi munosa-batlarga sovuqchilik tushadi. Keyinchalik Abdullaxon II Akbarshoh huzuriga navbatdagi elchisini yuborib, o'g'lining xatti-harakati uchun undan uzr so'ragan.

2.Masala; Manbalarda ta'kidlanishicha, Muhammad Shayboniyxon bilan Usmonli turk sultoni Boyazid II o'rtasida Eron safaviylariga qarshi" kurash to'g'risida shartnoma tuzilgan. Usmonli turk davlati bilan aloqalar Shayboniyxondan keyin ham davom etdi. 1515-yilda turk sultoni Sulton Salim huzuriga shayboniylar elchisi bordi. Sulton Salimning elchisi Muhammadbek esa o'sha yili Buxoro xonligiga sultorning maktubini olib keladi. Sulton o'z maktubida Ubaydullaxonni „qizil boshlar"ga qarshi kurashga chaqiradi. Usmoniylar va shayboniylarning safaviylarga qarshi kurashida din bir niqob edi, xolos. Aslida esa bu G'arbiy Eron, Kavkaz va Xuroson uchun olib borilayotgan siyosiy kurashning natijasi edi. Shayboniylarning Movarounnahr taxti uchun kurashida Usmoniylar

Navro'z Ahmadxon¹ga yordam uchun harbiy kuch ham jo'natgan. Navro'z Ahmadxon²ning Toshkentdagi qarorgohida 300 nafar turk askari doimiy xizmatda bo'lgan, qurol-aslaha bilan ham ta'minlab turgan. Turk askarlari Navro'z Ahmadxon tarafidan turib Nasaf yonida Abdullaxon II ga qarshi janglarda qatnashganlar. Binobarin, usmonlilar sultonligi safaviylarga qarshi kurashda shayboniylar kuchidan foydalanibgina qolmay, Buxoro xonligida o'z siyosiy ta'sirini kuchaytirish maqsadida ham bu ichki kurash-larda faol qatnashdi.

3.Masala; Buxoro va Eron manfaatlari to'qnashgan asosiy nuqta Xuroson edi. Buning sababi -Xurosonning ham harbiy-siyosiy, ham savdo-iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligida edi. Bundan tashqari, Xuroson Buxoro xonligi, Eron va Hindiston yo'nalishida o'ziga xos darvoza vazifasini ham o'tar edi.

Xurosonni nazorat qilish masalasida shayboniylar va safaviylar o'rtasida keskin kurash ketgan. Bu masalada Muhammad Shay-boniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II hukmronligi davrida shayboniylar ustunlik qildilar. Chunonchi, Abdullaxon II Xurosonning Marv, Nishonur va Mashhad kabi yirik shaharlarini egallagan.

4.Masala; Buxoro xonligining Rossiya bilan munosabatlari XVI asrning ikkinchi yarmidan rivojlana bordi. Abdullaxon II Rossiya bilan savdo aloqalarini yaxshilashga harakat qilar ekan, bu orqali o'z davlatining siyosiy ahvoni mustahkamlashga erishmoqchi edi. Chunki podsho Ivan Grozniy (1530—1584) davrida Rossiyaning mavqeyi kuchaya bordi. Ivan Grozniy davrida Qozon xonligi (1552 yil), Hojitarxon xonligi (1556), Volga bo'ylari; va G'arbiy Sibir hududlari Rossiya tomonidan bosib olingan edi. Bu hoi Rossiyaga savdo yo'llarini nazorat qilish imkonini berdi.

Volga atrofidagi viloyatlarda savdo-sotiq ishlarini olib borish Buxoro xonligidan kelgan savdogarlar uchun ancha qulay edi. Ularga eng yaqin qo'shni mamlakat Rossiya bo'lib qolgandi. Bu hol ko'p jihatdan qozon tatarlari hamda boshqirdlar bilan din va til yaqinligi bilan izohlanar edi. Shuning uchun ham Abdullaxon II tomonidan 1557—1558- yillarda Moskvaga elchilar yuborilgan. Elchilar] Astraxan orqali Moskvaga borib Ivan Grozniy huzurida bo'ladilar. Ular

o'z xonlari nomidan savdogarlarning Volga bo'ylab erkin o'tishlariga ijozat so'raydilar. Qaytib kelgan elchilar Moskvada juda ko'p o'q, dori, ov qushlari va matolar bilan qaytganlar.

Ayni paytda, Rossiya ham Buxoro xonligi bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishdan manfaatdor edi. Bu manfaatdorlik avvalo Buxoroning Rossiya tovarlarini sotish uchun qulay bozorligida edi. Ikkinchidan esa Rossiya Buxoro xonligi orqali Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'lardi. Bunda birinchi navbatda, Hindistonga chiqish maqsadi hisobga olingan edi. 1555- yili Moskvada tashkil etilgan „Moskva savdo kompaniyasi“ vakili Antoniy Jenkinson boshliq elchilar rus podshosining guvohnomasi bilan 1558- yili Buxoroga yuboriladi. Elchi Antoniy Jenkinson Buxoro xoni Abdullaxon II tomonidan qabul qilindi. Elchi xonlikning xalqaro va ichki savdo imkoniyatlarini, Rossiyadagi Moskva shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahrigacha 1558- yilgi sayohat" nomli esdaliklarida bayon etadi.

Antoniy Jenkinson elchiligi natijasida Rossiya va Buxoro xonligi o'rtasida yaxshi savdo va diplomatik aloqalar yo'lga qo'yildi.

IV.O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 10 daqiqa.

O'rganilgan mavzuni mustahkamlash savol-javob jarayonida quyidagi savollar asosida o'tkaziladi.

1. Buxoro xonligi deyilganda qaysi hududlar ko'z oldingizda gavdalanadi?
2. Usmonli turklar deyilganda bugunda qaysi davlatni tushunasiz?
3. Boburiylar davlatining taxminiy hududini siyosiy xaritada ko'rsata olasizmi?
4. Dunyoning siyosiy xaritasida Rossiya davlatini ko'rsata olasizmi?

V.Dars yakunlarini chiqarish. 3 daqiqa.

Darsning yakunlari bo'yicha o'quvchilar bohalanadilar.

VI.Uyga vazifa. 2 daqiqa.

Uyga vazifada 32-36 betlarni o'qib kelish.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar.

1. Prezident I. A. Karimovning asarlari va so'zlagan nutqlari.

- 1.1 Karimov I.A. Xiva va Buxoro shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimlardagi tabrik so'z. Xalq so'zi. 21. 10. 1993.
- 1.2 Karimov.I.A Mintaqa havfsizlik va hamkorlik uchun. T.: O'zbekiston 1996.
- 1.3 Karimov.I.A O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston 1997.
- 1.4 Karimov I.A. Zamonaviy kadrlar-taraqqiyotimizning muhim omilidir. Toshkent "O'zbekiston" 1997-yil VI-jild, 262-268-sahifalar.
- 1.5 Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. "Tafakkur" jurnali Bosh tahririyatining savollariga javoblar, "Tafakkur" jurnali 1998-yil, 2-soni.
- 1.6 Karimov.I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: O'zbekiston 1998.
- 1.7 Karimov.I.A Yevropa—Kavkaz—Osiyo (TRASEKA) transport tarmog'ini rivojlantirishga bag'ishlangan nutq. T.: O'zbekiston 1999.
- 1.8 Karimov.I.A BMT bosh assambleyasida so'lagan nutq. T.: O'zbekiston 2001.
- 1.9 Karimov.I.A Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.: O'zbekiston 2002.
- 1.10 Karimov.I.A Yo'ksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat 2008.
- 1.11 Karimov.I.A Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishni taminlash bizning oliy maqsadimiz. T.: O'zbekiston 2009.
- 1.12 Karimov.I.A O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O'zbekiston 2011.
- 1.13 Karimov.I.A Buyuk va muqaddassan mustaqil vatan. T.: O'qituvchi 2011.

2. Mavzuga oid huquqiy meyori hujjatlar.

- 2.14. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi' Asosiy qonun. Toshkent "O'zbekiston" 2012-yil.
- 2.15. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni. Toshkent "O'zbekiston" 1997-yil.
- 2.16 O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash miliy dasturi. Toshkent "O'zbekiston" 1997-yil.
- 2.17 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Akademik litseylar va kasb hunar kollejlarini tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to'g'risida" 1998-yil, 24-fevralda qabul qilgan qarori.
- 2.18 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining. "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi" 1998-yil, 27-iyulda qabul qilgan qarori.
- 2.19 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining uch kitobdan iborat "O'zbekistonning yangi tarixi"ni nashrga tayyorlash va nashr etish haqida 1996-yil 13-dekabr qarori.
- 2.20 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sog'lom avlod" davlat dasturi to'g'risida"di 2000-yil 15-fevral qarori.
- 2.21 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "o'rta mahsus, kasb hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2000-yil 16-oktyabr qarori.
- 2.22 O'zbekiston davlat standarti, O'zbekistonda uzluksiz ta'lim standartlari davlat tizimi. O'rta mahsus, kasb hunar ta'limi umumta'lim fanlari. 200-yil 16-oktyabrdagi qarori sosida tasdiqlangan.
- 2.23 O'rta mahsus, kasb hunar ta'limining umumta'lim fanlari davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari. Toshkent "sharq" 2001y.

3 Mavzuga oid qo'shimcha adobiyotlar.

- 3.24 Atajanov Sh. Ilhomav Z. Ishquvatov V. O'zbek xonliklari (o'quv qo'llanma) T.: 2011.
- 3.25 Mirzaeva N.Z. Nunizmatika fanidan o'quv uslubiy majmua. Guliston. 2009.
- 3.26 Movlonov O.M. Markaziy osiyoning qadimgi yo'llari. T.: Akadimiya 2008
- 3.27 Murtazayeva R.H. O'zbekiston tarixi. T.: <<Yangi asr avlodi>> 2003.
- 3.28 O'. Tuxtamishov, Sh.Abdirashiov, A.Yo'ldoshev, Yu.Po'latov, O'zbekiston tarixi. Samarqand. 2008 yil
- 3.29 O'zbek milliy ensiklopediyasi. Toshkent, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» nashriyoti, barcha tomlari.
- 3.30 Ozoda Rahmatullayeva, Avzar Saydullayev, Jomol Salomav, Yordamchi tarix fanlari (o'quv qo'llanma) T.: 2010
- 3.31 R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev. Vatan tarixi II tom. T.: Sharq nashriyoti. 2010 y.
- 3.32 Sarmisoqova.A. O'rta osiyo nunizmatikasi va epigrafikasi. (uslubiy qo'llanma) Namangan. 2008.
- 3.33 Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: Т.: Шарқ, 2001.
- 3.34 Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994.
- 3.35 Вамбери Х. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Китобдан парчалар. Т.: Адабиёт ва санъат, 1990.
- 3.36 Давидович Е.А. Корпус золотых и серебряных монет Шейбанидов. XVI век. – М., 1992.
- 3.37 Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии. М., Наука, 1983.
- 3.38 Давидович Э.А. История монетного дела средней азии XVII-XVIII vv. Издательство Академии наук Таджикской ССР Душанбе—1964.
- 3.39 Зияев Ҳ. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI—XIX асрлар). Тошкент, 1962.

- 3.40 Мукминова Р.Г. К Истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. (по материалам «Вакфнаме») – Т.: Фан, 1966.
- 3.41 И.Низомиддинов. XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё—Ҳиндистон муносабатлари. Т., Фан. 1966.
- 3.42 Из архива шейхов Джуйбари. Под редакцией Е.Э.Бертелса М. 1938.
- 3.43 Тўхтиев И. Тангалар тилга кирганда. Т., «Фан». 1989.
- 3.44 Эрназаров Т. Тангалар ўтмиш даракчилари. Т., «Фан», 1977.
- 3.45 Я.Ғ.Ғуломов Р.Н.Набиев. М.Ғ.Воҳобов. Ўзбекистоннинг ССР тарихи. Т.; 1958.

4 Mavzuga oid dissertatsiyalar.

- 4.46 Hayitova M.X. Karmana shahrining Buxoro xonligida ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida tutgan o'rni. T.f.n. diss. T.2 004
- 4.47 Pardayev Ahrorqul Hasanovich. Jizzax bekligi—o'rta osiyo xonliklari davrida (XVI asrdan XIX asrning 60 yillarigacha). T.f.n. diss T. 2004.
- 4.48 Rahmonqulova Z.B. XVI-XX asr boshlarida O'rta osiyo va Usmoniylar davlatlari o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot. T.f.n. diss. T. 2004
- 4.49 Razoqov Davron Xoliqovich. Buxoro xonligining tashqi savdo aloqalari. T.f.n. diss. T. 1994.
- 4.50 Sultonova Gulchehraxon Nasirdinovna. XVI asr ikkinchi yarmida Buxoro xonligining Qozoq va Yorkend xonliklari bilan aloqalari. T.f.n diss. T. 2005.
- 4.51 To'raev Halim. Buxoro xonligining XVI-XVII asrlar ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotida jo'ybor xojalarining tutgan o'rni. T.f.d diss. T. 2007.

5 Mavzuga oid maqolalar.

- 5.52 Ayupova.F. Qadimiy tangalar. Moziydan sado. 2000y. 1-2son.
- 5.53 Sanaev. I <<Insof quyoshining matla'i...>> Yoxud shoir, islom homiysi Abdullaxonga nasib etgan baxt xususida. //O'zbekiston adobiyoti va Sa'nati, 2004. 16 iyul. №28.

- 5.54 Tolib Qurbonov. Qadimgi Buxoro buyumlari, zomon jilosida. //moziydan sodo// №2 2007
- 5.55 Xoliqov.A. Hunarmandchilik va sovda markazlari. //Jamiyat va boshqaruv// №1 2003
- 5.56 Xoliqov.Z. Jahongirov.B. So'ngi o'rta asrlar tangalari. // Moziydan sado// №3 2008
- 5.57 Нозим.Х. Абдугани.В. Борно.М. “Қоғоз ишлаб чиқариш тарихидан” Мозийдан садо,№ 4 2009.
- 5.58 Юлдуз Ғайбуллаева. “Дуппилар тарихидан” Мозийдан садо, №3 2010.

6. Enternet ma'lumotlari.

- 6.59 www.ziyo.uz
- 6.60 www.kitob.uz
- 6.61 www.tdpu.uz
- 6.62 www.gov.uz

ILOVALAR


GLOSSARY.

O'zbekcha.	Ruscha.	Inglizcha.
Arava	Тачка	Barrow
Bojxona	Таможня Таможенный	Choky
Bozor	Рынок Ярмарка Базар	Emporium
Charvochilik	Животноводство	Stock-raising
Chegara	Граница Межа Предел	Abutment
Dala	Поле	Corn-fled
Dehqon	Крестьянин	Cottager
Din	религия	Medievalism
Do'kon	Будка	Booth
Dushman	Враг	Adversary
Elchi	Посланец Посол	Ambassador
Harbiy	Военный	Soldier
Hukumdor	Правитель	Governor
Hunarmand	Ремесленник	Artificer
Ichki	Внутренний	Inner
Ipak	Шёлкопрядение	filature
Iqtisod	Экономика	Economics
Kulol	Гончар	Potter
Kumush	Серебро	Silver
Lavozim	Должность	Appointment
Madaniyat	Культура	cultivation
Maosh	Заработная плата	Remuneration
Maxsulot	Товары	Goods
Minora	Башня	Belfry
Mis	Медь	Copper
Muhr	Печать	Stamp
Muzokara	Переговоры	Conversation
Narx	Цена	Charge
Nazorat	Контрольный	Auditorial
Nizo	Раздор	Contention
Obro'	Авторитет	Authority
Og'irlik	Вес	Weight
Oltin	Золото	Gold

Pilla	Кокон	Case-worm
Pul	Деньги	Cash
Qarzdor	Должник	Debtor
Qimmatli	Драгоценный	Precious
Qishloq	Деревня	Village
Qog'oz	Бумага	Paper
Rais	Председатель	Chair
Raqobat	Конкуренция	Competition
Sandiq	Сундук	Chest
Savdo	Торг	Auction
Savdogar	Торговец	Bargainer
Shahar	Город	Town
Soliq	Пошлина	Tax
Sotuv	Продажа	Sale
Sovut	Кольчуга	Mail
Tanga	Монета	Coin
Tarozi	Весы	Balance
Tashqi	Наружный	External
Temir	Железистый	Ferriferous
Vakil	Агент	Agent
Xalq	Народ	People
Xo'jalik	Хозяйство	Economy
Zargar	Ювелир	Goldsmith



Shayboniyxon tangasi. Buxoro dirhami (kumush).



Zarafshon daryosida qurilgan ko'prik — suv ayirg'ich



Abdullaxon timi (savdo rastasi). 1577 yil Buxoro

1-ilova.

Katologlar bo'yicha	930	931	938	942	946	986
Kumushning %	29,93	30,95	29,68	30,59	30,12	24,49
Misning %	65,57	68,95	69,96	68,88	69,87	—

2-ilova.

№	Fizik ko'rsatgichlar	O'lchov birligi	Ko'rsatgich qiymati.	
			Standart yozuv qog'ozi uchun.	Qo'qon qog'ozi namunasi.
1	1 m og'irligi	gr	65,0	60,2
2	Yilimlash darajasi yoki siyohning yoyilishi	mm	1,6	1,2
3	Uzilish uzunligi	m (metr) mkm (millimikron)	3000	3338
4	Qalinligi	mkm (millimikron)	80-70	60
5	Zichligi	g/sm ²	0,6	1,0
6	Oqlik darajasi		79,0	33,2
7	Tozalik darajasi 1 m dagi dog'lar soni	dona	80	1332
8	Silliqlik darajasi	sek	100-200	120
9	Sinishga	sek	8	6

	mustahkamligi			
10	Kuydirilgan ko'l miqdori	%	4,5-5	0,00
11	Namlik darajasi	%	5+1	5

3-ilova

O'rta Osiyoga olib kelingan rus mollari.

№	Savdogarlarning nomlari .	Yillar	Rus mollarining miqdori va turlari.
1.	Nomlari na'malum.	1628	Ikki sorok suvsar, 34 savsar.
2.	Abkuav, Mamedov, Mullagapav, Qarabotir, Do'sumov, Shodmonov, Yusupov, Dozayev, Ma'riev.	1658	147 ta har xil rangli tulki muynasi, 18 po'stin, 100 nina, yelim, 100 oq sichqon va 100 ta olmaxon muynalari.
3.	Do'sumov, Zalipov, Ovsav, Nurmametov, Nurrashixov, Ashirov, Toirov, Murzin va Raimov.	1672	Qunduzdan olingan 4 pud suyuq dori, Sibir kiyikgidan olingan 29 qadoq suyuq dori, 59 juft savsar mo'ynasi, 4 sorok mo'yna, 10 qunduz muynasi, 2 qadoq qizil bo'yoq va 600 ta olmaxon muynasi.
4.	Burchiyev, Tyulkov, va Mametov	1676	202 ta qizil charm, 3 ta og'ir miltiq, 7 ta qilich, yarim pud porox, 6ta Yaraslavoyynasi va 2 ta gaz mavut.
5.	Valiyev, Abdullin va Alimboy.		50 ta qizil charm, 300 ta oqsichqon

		1687	mo'ynasi, 20 ta po'stin, 50 ta tulki mo'ynasi.
6.	M. Qurbonov.	1685	2000 ta olmaxon va 300 ta oqsichqon mo'ynasi.
7.	To'xtaboy Qachqulayev.	1700	30 qadoq morj tishi

4-ilova.

Sibirga keltirilgan Buxoro tovar maxsulotlarining narxi.

Tovar maxsulotlarining nomi.	1639—1672 yillar.		
	Tovarlarning miqdori.	Bojxona narxi.	Bozor narxi.
Gazlamalar: ikki qavatli zandoni	Bir to'pi*	13olt.**-2d***	8olt. 2d-13olt. 2d.
Uch qavatli zandoni		15olt.-2d	5olt. 4d—13olt. 2d
Buxoroning enli guldor gazlamasi.		1 so'm 18 olt 2d.—1 so'm 26olt 4d	13olt. 2d.
Ensiz guldor gazlamasi		13olt. 2d.	8-13olt 2d.
Yaltiroq xom surp		20-26olt 4d	13olt 2d—16olt 4d
Ensiz bo'z	Bir gazi	1olt 4d	4-8 d
Enli qalami	Bir to'pi	20olt	—
Rangdor qalami		20 olt -23olt 4d	—
oq dona	Bir to'pi	1 so'm	—
Buxoroning zarxal ipak gazlamasi.		1,5 so'm	—
Sating o'xshash gazlama		20 olt	11olt 4d
Ipak aralash gazlama		1 so'm 4 olt 1d —1 so'm 6 olt 4d	20 olt—1 so'm
Ip gazlama to'n	bittasi	1 so'm 6 olt 4d	20 olt
Ipak gazlama to'n		2 so'm	—
P'ostin		2 so'm	—

Nimcha		1—1,5 so'm	—
Ipak kamzil		1 so'm	—
Ip belbog'		8 olt 2d—13olt 2d	6 olt 4d—10 olt
Ipak aralash belbog'		1 so'm	20 olt
Ipak salla		3 so'm	—
Ipak kuylak		Yarim tiyin	—
Ip ro'mol		8 olt 2d	5-8 olt 2d
Rangli ro'mol		10-13 olt 2d	—
Buxora pardasi		1 so'm 6 olt 4d	13 olt 2d
Buxoro gilami		2-3 so'm	—
Ip dasturxon		8 olt 4 d—18 olt 2 d	5-8 olt
Ko'rpa		1,5-2 so'm	—
Qoplon terisi		2 so'm	—
Buxoro o'q-yoyi		1 so'm 25 oltin-2 so'm	1 so'm 20 olt-2 so'm
Temir qozon		2-3 so'm	2 so'm
Paxta	Bir qadog'i	3 olt 1d—6 olt 4 d	3 olt 1 olt—5 olt
Xom ipak		3 so'm	—
Ko'k qog'oz	Bittasi	13 olt 4 d	—
Rovoch	Bir pudi	10-18 so'm	—

5 ilova.

O'lchamlarda	Istar	Ratl	Shariat mani	Sa
Misqollarda	4,5	90	180	720
Gramlarda	21,6	432	864	3456




Табл. 46. Картуши серебряных монет Имам-Кули-хана.




Табл. 22. Янги-Юльский клад; картуши серебряных монет Имам-Кули-хана.







Табл. 6. Картуши серебряных монет Абдулазиз-хана.




Фототаблица 1. Золотые монеты. 1—Абулфайз-хан, 1123 г. х.; 13—Абулфайз-хан, 1158 г. х.; 14 — 17, 22 — Абулфайз-хан; 24 — 26—Абдулмумин-хан, 1160 г. х.




Фототаблица III. Серебряные монеты. 2 — 4 — Джани-Мухаммад-хан, 1009 г.х.; 16—Джани-Мухаммад-хан; 33—Баки-Мухаммад-хан; 43—Вали-Мухаммад-хан; 457—Имам-Кули-хан.




Фототаблица IV. Серебряные монеты. 47, 95, 281—Имам-Кули-хан, Бухара; 168—Имам-Кули-хан (увеличено).



Фототаблица V. Серебряные монеты Имам-Кули-хана.
(увеличено).



Фототаблица VI. Серебряные монеты. 639 — Надир-Мухаммад-хан, 1054 г. х.; 655—Надир-Мухаммад-хан, Бухара, 1054 г. х.; 771, 768—Надир-Мухаммад-хан; 491—Надир-Мухаммад-хан, Бухара, 1052 г. х. (увеличено).



Фототаблица VII. Серебряные монеты. 460—Имам-Кули-хан; 795, 826—Абдулазиз-хан; 906—Субхан-Кули-хан, 1110(?) г. х.; 925, 926—Абулфайз-хан; 967—Мухаммад-Рахим-хан; 992—Абулгази-хан, Бухара, 1200 г. х.